

Devorga osig'liq ketmon

Maktabga qadam qo'yg'unimizgacha otam saboqlarini qulog'imizga qo'rg'oshindek quyib ulurgan edi. "Maktabga borgach o'yingaroqligingni yig'ishtirib qunt bilan o'qimasang, meni qattiq ranjitgan bo'lasan!". Otamni ranjitib qo'ymaylik deb, hatto issig'imiz oshganda ham bilintirmay sevimli maktabimizga sudralganча ravona bo'lardik.

2-bet

Tilim tilim-tilim

Grammatikaga yem bo'lgan o'zbek tili

Amaliyotchi talabalarimiz ko'proq adabiyot darslarini o'tishga talabgor bo'lishadi va odatda buni durustgina uddalaydilar. Ammo ona tilidan (ham) dars o'tish rejasidan chiqib ketisholmaydi.

5-bet

Koronavirus pandemiyasi saboqlari

ta'lim tizimi chuqur isloh qilinishi zarur

Agar respublika aholisi yiliga yarim millionga yaqin kishiga o'sishini, aholining 60 foizga yaqini yoshlar ekanini hisobga oladigan bo'lsak — bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekanligi ayonlashadi.

8-9-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 24-iyun, chorshanba № 21 (9294)

Xalq ziyolilari gazetasi



Tojsiz viruslar iskanjasida

Yaxshiyam biz tojdor virus haqida tasavvurga egamiz. Shuning uchun ham iloji boricha undan himoyalinishga harakat qilyapmiz. U haqida xabar tarqalgandan buyon miyamda bir savol aylanadi. Tutiqliqsiz bo'lsa-da aytaman: shu paytgacha "tojdor" singari qudratga ega biror virus bizga yuqqan-u, undan bexabar qolgan bo'lishimiz mumkinmi?

Hech bir jamiyat to'kis emas.

Oqillar-ahmoqlar, yaxshilar-yomonlar, to'g'ri- lar-og'rilar, sog'lar-kasallar, boylar-kambag'allar, mehnatkashlar-u tekinko'rlar... bularning barchasi

birlashib butun jamiyatni hosil qiladi. Kimdir bizningcha xato yo'ldan ketayotgan bo'lishi mumkin, ammo u o'z yo'lini to'g'ri deb o'ylaydi. Biz yomon hisoblagan odam ich-ichidan o'zini olamdagi eng yaxshi odam deb bilishi ajablanarli emas. Hatto u bizning nomimizni ko'ngil daftariga "yomon" deb yozib qo'yg'an bo'lishi mumkin. Shuningdek, jamiyatdagi barcha toifalarning istaklari, orzu- armonlari, o'zlari mutlaq to'g'ri deb bilgan haqiqatlari bor. Men ham shu jamiyatning yaxshi yoki yomon, fikrli yoki kaltafahm, baxtsiz yo baxtiyor a'zosi sifatida yuqoridagi savolga javob bermoqchiman. Qarshimasmisiz? O'rindig'ingizga yaxshi joylashib olgan bo'lsangiz, aytaman.

3-bet

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)



Ushbu sonda biologiya, tarix, ingliz tili hamda ona tili va adabiyot fanlaridan test namunalari nashr qilinmoqda!

Obuna bo'lishni unutmang!

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Ta'limda sifat haqida gapirishdan oldin buning uchun yetarli sharoit bormi, degan savolni beraylik? Sinfda o'quvchilar soni 20 dan oshmasligi sifatni belgilovchi muhim omil deb hisoblayman. O'qituvchi o'quvchi bilan ko'proq ishlaydi. Doskadagi amallarni bajarishda barcha birdek qatnashadi, nazorat ortadi. Yangi o'quv yilida mana shu yangilikni kiritaylik!

Dilfuza XOLMURODOVA

Kuzatuv kengashlari faoliyati o'zini oqlamadi. Faqat direktor buyurgan ishni qiladi, aytilgan qog'ozlarga imzo qo'yadi. Bu orqali ko'plab rahbarlar o'z manfaati yo'lida ish tutdi. Menimcha, ularning faoliyatini qaytadan ko'rib chiqish kerak.

Hoshimjon ZOKIROV

Oldinlari o'qituvchiga elektr, gaz, tibbiy ko'rik va boshqa imtiyozlar ber edi. Hozir ham yo'q emas. Ammo borlariga ham haqli ravishda erishayotganlar kam. Avvalo, dars taqsimotini o'qituvchining bilim-salohiyatidan kelib chiqib belgilash kerak. Bilimli pedagoglarning ko'pi dars soati kamligidan norozi. Bunday o'qituvchilarga tanlash imkonini berish kerak. Eng yaxshi imtiyoz mana shu bo'lar edi.

Tohira SODIQOVA

Bir kuni darsda...

Maktab xotiralari

Bolalik, maktab hamda kelajak hayot sari tashlangan ilk odimlar... Bu davrda har birimizning yoshlik xotiralarimiz ajib manzaralar bilan boyib boradi. Hayotimizning bir bo'lagi bo'lmish maktabda, ayni mashg'ulot jarayonlarida qiziqarli voqealar bilan birga kutilmagan ko'ngilsizliklar ham kuzatiladi. Ana shunday damda eng to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi ustozlar fikri tinglanadi. "Bir kuni darsda" rukni orqali ba'zi chizgilarni havola etayapmiz.

Do'stlik haqiqati

Bir kuni darsda yuqori sinflardan nazorat ishi olishim kerak edi. Ijodiy bayon yozish uchun mavzuni "Mehribonim — onajon" deb nomlab doskaga yozdim. Negadir o'quvchilar bu mavzuda yozishga rozi bo'lishmadi. Ancha asabiylashdim, axir "Ona haqida ham yozishdan bosh tortishadimi", deb kuyinib gapirdim. Baribir ular "Boshqa mavzu tanlay qolaylik", deb oyoq tirab olishdi. Noiloj, ayol haqida ijod qilishga kelishdik. Dars yakunida bor haqiqatni bilgach, ko'zimga yosh keldi. Maktab, o'quvchilik va beg'ubor do'stlik baribir ajoyib ekanligini o'ylab, havas bilan xo'rsinib qo'ydim. Ya'ni, bir guruh o'quvchilar oldimga kelib uzr so'rashdi: "Ustoz, kechiring. Sinfimizdagi Shirinning oyisi o'tgan yili vafot etgandi. Biz ona haqida to'liqinlanib yozsak, uni o'qib bersak, sinfdoshimizning ko'ngli o'ksimasin

deb yozmadik. Buni faqat o'ziga sezdirib qo'ymang, iltimos..."

Soxta qo'rquv

Bir kuni darsda rezinadan yasalgan o'yinchoq ilonchani olib kelib meni qo'rquvchi bo'lishdi. Endigina boshlang'ichdan yuqoriga ko'tarilgan 5-sinf o'quvchilari quvnoq va sodda bo'lishadi-da. Doskaga sanani yozayotganimda, ship-ship ovozlari va "bo'ldi", "joyladim" degan shivir-shivirlardan bu shumtakalar, o'yinchoq ilonchani mening stol yoki stulimga qo'rganlarini payqab qoldim. Ortimga o'girildim va do'ppayib qolgan jurnaldan "ilon" o'sha yerda ekanligini bildim. Men ham shu kuni jurnalni atay ochmadim. Bolachalarni ko'rsangiz edi: "Ustoz, bahomizni jurnalga qo'ying", "Jurnalga kimdir tegdi" degan gaplari bilan jurnalni ochishga undashardi. Bir kulgim keladi, asti so'ramang. Kel, shular bir mazza qilsin, quvon-

sin, deb "nogoh" jurnalni ochdim-u "qo'rqqanimdan" "voy-dod" deb yubordim...

Malika SODIQOVA,
Vobkent tumanidagi
20-maktab o'qituvchisi

Yaxshi niyat

Bir kuni darsda eshik taqilladi. O'quvchilarning Anoraning ortidan o'tasi ko'rindi:

— Assalomu alaykum, ustoz. Qizingizni olib keldim.
— Vaalaykum assalom. Mana mening yana bitta Zulfiyaxonim va boshqa davlat mukofotlarini oladigan qizim, deb erkalab, yelkasidan quchib, peshonasidan o'pdim. Dadasi avvaliga hayron qoldi, keyin gaplarimga qo'shimcha qilib gapirishda davom etdi:

— Ustoz, men sizga "Zulfiyaxonim" ko'krak nishonini taqqan, davlat mukofotlari bilan mukofotlangan, o'zi barchaga yoqqan, Amerika elchixonasining konsulini topshirib ketayapman. Ishlaringizga omad! Kuningiz yaxshi o'tsin. Boringizga shukur, opa, — dedi.

Ota ketdi. Men esa shu kuni Amerikadagi O'zbekiston elchisiga, bosh vazirga, shahar hokimi, maktab direktori, qo'li gul naqqoshga, mohir tikuvchiga, tanqli rassom, el tanigan tanqli insonlarga, senatorlarga dars o'tdim. O'quvchilarimning har birida bitta ulug' niyat bilan o'tirgan buyuk insonni kashf etdim. Ota-onalarning menga bo'lgan ishonchidan ruhlanib, 30 yillik horg'inlikni yayrab-yashnab unutib dars o'tdim. O'quvchilarimni ham darsda kelajakda katta lavozimlar nasib bo'lishiga ishonirib, mashg'ulotdan ruhlantirdim. Yaxshi niyat bor bo'lsin, yaxshi niyatli insonlar ko'paysin!

Qandolat RAHMONOVA,
Navoiy shahridagi
2-maktab o'qituvchisi

Maktabga qadam qo'yganimizgacha otam saboqlarini qulog'imizga qo'rg'oshindek quyib ulgurgan edi. "Maktabga borgach o'yinqaroqligingni yig'ishtirib qunt bilan o'qimasang, meni qattiq ranjitgan bo'lasan!". Otamni ranjitib qo'ymaylik deb, hatto issig'imiz oshganda ham bilintirmay sevimli maktabimizga sudralganча ravona bo'ldik.

Devorga osig'liq ketmon

Bir kuni otam bozordan yangi ketmon olib keldi. O'shanda yuqori sinfda o'qirdim. Otam menga qo'lidagi yarqirab turgan ketmonni ko'rsatib, "Zo'rmi? Buning o'tkirligini qara. Yerga qo'ysang, o'zi ishlab ketadi", dedi kulib. Men hayron bo'lib ilindamay otamni kuzatardim. "Buni senga oldim. Agar institutga kirolmasang, shu ketmonda dalaga chiqib ishlaysan. Ungacha mana shu devorda osig'liq turadi. Hech kim tegmasin!" dedi-da, qo'lidagi ketmonni devorga osib qo'ydi. Yuragimda allanechuk hislar charx urar, otam meni yaxshi ko'rmas ekan-da, yaxshi ko'rganida ketmon ko'tarib kelmagan bo'lardi, degan alamlı xayollar miyamda aylanar edi. O'sha kundan e'tiboran o'qishni qattiq tutdim. Kitob qo'limdan tushmas, yarim tungacha xonam chirog'i o'chmas, tinmay o'qir, kam uxlar, maktabda ham sinfning oldi bo'lib, suratim a'lochilar taxtasidan tushmay qolgan edi. Bitiruv imtihonlarini ham yakunlab bo'ldik. Devorda hali ham o'sha ketmon osig'liq...

Hujjatlarimni ko'tarib Toshkent azimga yo'l oldim. Imtihon kun otam qishloqdan yetib kelidi. Abiturientlar, ota-onalar bilan to'la hovlida ismimni aytib chaqirishini kutib turibmiz. Nihoyat chaqirishdi. Xuddi armiyaga yuborayotgandek otam meni mahkam bag'riga bosib, qulog'imga shivirladi: "Senga ishonaman, bolam!". Otamning bag'ridan chiqdim-u, abiturientlar oqimiga qo'shildim. Otamning "Senga ishonaman, bolam!" degan gaplari qalbidagi qo'rquv muzlarini eritib, ko'zlarimda yosh tomchisimon zohir

bo'ldi. G'urur, ishonch, mehr bilan imtihon xonasiga kirib bordim...

Imtihon natijalari e'lon qilinadigan kun ham yetib keldi. Test natijalari ko'rsatilgan joyda ancha yoshlar yig'ilgan. Birov shodon hayqirsa, birov xafalikdan yig'layapti. Urilib-surilib natijalar ko'rsatilgan joyga yaqinlashdim, ismimni qidira boshladim. "Yiqilgan"lar orasida yo'q ekan. "Shartnoma"chilar orasida ham. Yuragimga g'ulg'ula tusha boshladi. Nahotki anglashilmovchilik bo'lib mening ismim tushib qolgan bo'lsa. Qishloqqa qanday boraman, otamga nima deymam! Ko'zimga devorga osib qo'yilgan ketmon yarq etib ko'rinib ketdi. Uning suvrati o'chgach ne ko'z bilan ko'rayki, nomim yuqori ball bilan qabul qilinganlar orasida turardi. Ko'zlarimga ishonmay qayta-qayta qaradim. To'g'ri, men ekanman, men! Sevinchim ichimga sig'masdi, qushdek yengil bo'ldim. Osmonga uchib ketgim kelardi...

Qishloqqa qaytayapman-u, yo'l bo'yi otamni o'ylab ketayapman. Endi mening yuragimda otamga bo'lgan mehr hadsiz qaynar, devordagi osig'liq turgan ketmon voqeasini tushunganimdan ko'zlarimdan yosh tinmas edi. Qishlog'imga kirib borar ekanman, odamlarning mehr ila tabriklashlaridan ko'nglim tog'dek yuksalib, otanom diydoriga shoshidim. Hovliga qadam qo'rganimda necha yillardan beri devorda osig'liq turgan ketmon ko'rinnas, munisgina ota-onam quchoq ochib turardi...

Dildora SALOMOVA,
Romitan tumanidagi
22-maktab o'qituvchisi

Onalar va bolalar

— Ustoz, qizim qanday o'qiyapti? Xulqi qanaqa? Hozir o'tish davrida, unga qanday munosabatda bo'lishimni maslahat berasiz?
— deb so'rab qoldi bir kuni sinfdagi Marjonaning onasi.

— Qizingiz ilgama chanoq, aqlli, ammo biroz qaysar. Ko'proq kitob o'qisin. U bilan dildan suhbatlashing, — dedim.

— To'g'ri, u avval kitobni uncha xushlamasdi, ammo hozir yaxshi ko'radi. Ko'p o'qiydi, — dedi ayol nimtabassum bilan.

— Uni qanday qilib qiziqitiroldingiz?

— Uyimizdagi barcha xonalarga har xil kitoblar qo'yib chiqdim. Hatto oshxonaning ham "ko'ngli o'ksimasin" deb turli taomlar, pishirig'-u salatlar tayyorlashda yordam beradigan qo'llanmalar sotib oldim. Keyin o'zim ham ko'p kitob o'qib, undagi voqea va qahramonlar haqida gapirib berdim. Bunga uning va ukalarining munosabatini so'radim. Shu tariqa jajji kitobxon shakllandi-qo'ydi. Tug'ilgan kuniga nima sovg'a qilishimni so'raganimda "Kitob. O'tkir Hoshimov va Xudoyberdi To'xtaboyevlarni ko'rsin" degan javobni oldim.

Avtobusdaman. Yonimda turgan qizcha sekingina onasi pinjiga tiqilib "Saqlay chaynagim kelyapti" deb qoldi. Ona sumkasidan chiqarib berdi. Qizaloq saqlay o'chgan qog'ozini onasining hamyoniga solmoqchi bo'ldi. "Yerga tashlayver" deganday ishora qildi onasi. "O'yijon, bog'cha opamiz aytganlar, har xil narsalarni jamoat joylariga tashlamanglar, odobli bolalar bunaqa ish qilmaydi" deb. Axir men odobsiz bola emasman-ku" dedi bolalarga xos shirin ovozza. Bu ohang shunchalar yoqimli ediki, onasi xijolat bo'lib indamay deraza tomon burilib oldi. Qizcha sekin atrofqa qaradi. Avtobus ichida kattalar oyog'i ostida chiptalar, saqlay va pista po'choqlari, xarid cheklari unda-bunda sochilib yotardi. Shu payt orqa o'rindiqda o'tirgan ayolning qo'ynidagi bolakay xarhasha qila bosh-



ladi. Ayol yoshi katta bo'lishiga qaramay "O'chir ovozingni. Hozir tushaylik, o'zim bilaman seni" deya shunday jerki berdi, go'yo avtobus bir silkinib tushganday bo'ldi. Bola esa battar baqirib yig'lay boshladi. Ona birdan tarsaki tushirdi. Hammaning dili vayron bo'lgani shunday bilinib turardi.

Yonimdagı boyagi qizaloq onasidan yana saqlay so'rab, shu bolaga berishini aytdi. Haligi ayol qo'rqqa-pisa saqlay chiqarib bergan edi, bolakay jim qoldi.

Tunov kuni sinfdagi bir o'quvchining onasi qo'ng'iroq qilib "Ustoz, qizimni falon joyga repetitorga berganmiz. Har kuni onlayn dars qilaman deb, qo'shimchasi qolib ketyapti. Hozir qaysi biri kerak?" deb qoldi. Sohibaning mas'uliyatli o'quvchi ekanini yaxshi bilaman, shu sabab onasiga "Qizingiz har ikkoviga ham ulguradi, chunki u juda layoqatli" desam, mendan xafa bo'lib qo'ng'iroqni zarda bilan o'chirdi...


Mana, bir necha onaning xatti-harakati haqida ko'rganlarimni yozdim. Turli vaziyat, turlicha talqin, turli holat va turlicha qarashlar. Ammo barchasini bitta so'z — ONA umumlashtirib turadi.

Qadrlı hamkasbim! Sizda nima gaplar? Yozing, o'rtoqlashamiz.

Dilbar NORMURODOVA,
Termiz shahridagi
11-maktab o'qituvchisi

Tojsiz viruslar iskanjasida

Butun dunyo tojkor virus tahlikasi ostida yashayapti. Shu qatori biz ham. Ko'chaga niqob taqib chiqyapmiz. Yor-birodarlarni bag'rimizga bosishni-ku qo'yaturing. Hatto qo'l berib salomlashishdan ham tiyilayapmiz. Avvalo jon shirin. Keyin bilib-bilmay yaqinlarimizni-da zararlab qo'yishimiz mumkin. "Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni" deganlaridek, viruslar ko'zga ko'rinmas darajada mitti bo'lsa ham tog'dek jonzotlar kuragini bir usul bilan yerga tekkizib qo'yishiga qodir ekan.



Yaxshiyam biz tojkor virus haqida tasavvurga egamiz. Shuning uchun ham iloji boricha undan himoyalanihga harakat qilyapmiz. U haqida xabar tarqalgandan buyon miyamda bir savol aylanadi. Turturiqsiz bo'lsa-da aytaman: shu paytgacha "tojkor" singari qudratga ega biror virus bizga yuqan-u, undan bexabar qolgan bo'lishimiz mumkinmi?

Hech bir jamiyat to'kis emas. Oqillar-ahmoqlar, yaxshilar-yomonlar, to'g'ri-lar-o'g'ri-lar, sog'lar-kasallar, boylar-kambag'allar, mehnatkashlar-u tekinox'rlar... bularning barchasi birlashib butun jamiyatni hosil qiladi. Kimdir bizningcha xato yo'ldan ketayotgan bo'lishi mumkin, ammo u o'z yo'lini to'g'ri deb o'ylaydi. Biz yomon hisoblagan odam ich-ichidan o'zini olamdagi eng yaxshi odam deb bilishi ajablanarli emas. Hatto u bizning nomimizni ko'ngil daftariga "yomon" deb yozib qo'ygan bo'lishi mumkin. Shuningdek, jamiyatdagi barcha toifalarning istaklari, orzu-armonlari, o'zlari mutlaq to'g'ri deb bilgan haqiqatlari bor. Men ham shu jamiyatning yaxshi yoki yomon, fikri yoki kaltafahm, baxtsiz yo baxtiyor a'zosi sifatida yuqoridagi savolga javob bermoqchiman. Qarshimasiz? O'ringingizga yaxshi joylashib olgan bo'lsangiz, aytaman.

HA, YUQQAN! Biz tojkor virus tarqalgungacha ham undan-da qudratli parazitlar iskanjasida yashadik va yashayapmiz!

Nega buncha hayron bo'lasiz? O'ngingiz qamalgan dimiq xonaning derazalarini oching. Toza havo kirsin va tashqariga qarang. Ko'ngilni, tuyg'ularni, fikrlarni, o'tmishni, kelajakni butun bir millatni... hamma-hammasini ayovsiz kemirayotgan viruslarga ko'zingiz tushmadimi? Hayot bir zaylda davom etyapti, ko'zga tashlanadigan biror xavfni ko'rmadingiz. Hammasi joyida.

Sizni so'qirga yo'ymoqchi emasman. Sizning niholaringiz-da to'g'ri ko'ra-yapti. Hammasi joyida. Siz haqsiz. Demak, men nosog'lomman. Nima bo'lganda ham ko'zlarimga yaqqol tashlanib turgan viruslarni tasvirlamoqchiman. Xohlang eshit, istang quloqlaringizni berkiting.

Millat yujudiga keng tomir otgan viruslarining eng dahshatli bo'lgani YOLG'ON. U birinchi galda ko'z qorachig'iga shikast yetkazadi. Atrofdagi manzaraning asl ko'rinishini ilg'ay olmayisiz. Uzoqqa bormay o'zimizdan misol keltiraman. Maktabda, kollejdagi tahsil o'ldim. Hozir universitetda o'qiyapman. Shikastlangan qorachiqda bu davrlarga nazar tashlasam, hammasi kam-ko'rtsiz, a'lo darajada. Namunali o'quvchi, ilmi talaba — millatning porloq ertasi. Aslida-chi?

Maktab paytlarimiz sinfda 22 o'quvchi edik. Sentabrda o'qishning ikki haftasi o'tar-o'tmas, shuz ham taqchil bo'lgan ustozlarimizning yarmini paxtaga olib ketishar, ingliz tili fanidan mehnat o'qituvchisi, ona tili va adabiyotdan esa jismoniy tarbiya muallimimizdan saboq olishga to'g'ri kelardi. Paxta mavsumi yakunlangach qish boshlanib, sinfxonalar sovuqligi

sabab ko'pchiligimizni o'ta-onamiz maktabga yubormas, ular qarshi bo'lmagan taqdirda ham tog' etagida joylashgan qishloqning beqaror ob-havosi to'sqinlik qilardi. Bahorda sel xavfi sabab soyning narigi betida yashovchi sinfdoshlarimiz yana maktabdan mahrum. Kunlar isigach esa barchamizni ekin ekish, chorvaga qarash ishlari kutib turadi. Shu bilan 25-may. Sal suyagimiz qotib, 8-9-sinfga o'tganimizda oilaviy ahvoli qiyinroq sinfdoshlarim (ular ko'pchilik edi) shaharga mardikorlik qilgani ketib qolar, o'ziga to'qroqlari esa repetitorga. Ular bilan oylab ko'rishmasdik. To'qqizni bitirgach ikkita mahrum shaharga, qolgan barcha sinfdoshlarim qo'shni qishloqdagi kollejga hujjat topshirdi. Qishlog'imizda tonggi oltida yo'lga chiqib kechki soat 18:00 atrofida qaytib keladigan bittagina avtobus bor, boshqa ulovlar deyarli qatnamasdi. Qo'shni qishloqdagi kollejda o'qiydigan sinfdoshlarim shu avtobusga chiqib, manzillariga soat yetti bo'lay yetib borardi. Qishda bu payt hali quyosh chiqmagan bo'lardi. Endi ular kollejning hali ochilmagan eshigi oldida junjilib soat 9:00 gacha kutishlari kerak. Tabiiyki, dars tushki 13 atrofida tugaydi. Avtobus esa soat 17:00 dan o'tib kollej yoniga yetib keladi. Endi ularda ikki yo'l bor: to'rt soat avtobusni kutib turish, yoki 10 km.dan ziyod masofani piyoda bosib o'tish. Ular ko'pincha ikkinchisini tanlashardi. Birinchi kursni tugatar-tugatmas sinfdagi o'n o'g'il boladan to'rtov Rossiya-ga ketdi. Ko'pchiligi yana repetitorga. Keyin qolganlari ham deyarli kollejga bormay qo'ydi. Oyda bir-ikki marta ko'rinib tursa bas. Lekin paxta mahali hammasi terimga borishi shart, yoki o'miga biror kimni yuboradi.

Ular biz ikki shaharlikka havas bilan qarashar, ammo bizning ham ahvolimiz ularidan kam emasdi. 3 oyga yaqin paxta terimi. Bizning shtabni shaxsan viloyat hokimi kelib nazorat qilar, 80 kilogramm normani bajarmaganimiz uchun necha marta bo'ralatib so'kkani, kollejimiz kunlik rejani yaxshi bajarmagan paytlari yarim kechasi o'qituvchilarimizni traktor faralari yorug'ida tonggacha paxta terdigan, keyin ular bor g'azabini bizga sochgani kechagidek yodimda. Paxtaga bormaslik uchun ko'richaklarini kasal bo'lmas-da kestirgan kursdoshlarimiz ham bo'lgan.

Endi o'quv jarayonidan eshiting. Ustozlarning ko'pchiligining bilim darajasi sifatga javob bermas, yaxshilab surushsangiz universitetga pul bilan kirib, pul bilan tugatgan bo'lib chiqardi. Sinfdoshlarim o'qiydigan kollejdagi farqli o'laroq bizniki shahar markazida bo'lgani bois tartib qattiq. Davomat va formaga jiddiy qarashardi (bilim berishga emas).

O'sha paytlar ustozlarimizning oylik maoshi 700 ming so'm atrofida. Oshib borgan taqdirda ham 1 millionga yetmasdi. Biz talabalar kollej atrofidagi hovlilarda ijarada turar, bitta xonada 6-7 kishigacha siqilib yashasak-da har birimiz oyiga 80-90 ming so'mgacha ijara haqi to'lardik. Ko'p qavatli uylardan ikki xonalisni ijaraga ol-

ish o'sha paytlari 600 mingdan boshlanib, 1 milliongacha yetardi. Endi tasavvur qilib ko'ring, siz shu kollejda ishlasangiz-u, shaharda uyingiz bo'lmasa, oilali, ustiga-ustak ikki-uch farzandingiz bor. Olayotgan maoshingiz ijara uyingiz haqini to'lashga zo'rg'a yetadi (shunday sharoitdagi ustozlarimiz ko'pchilik edi. Pulni tejab qolish uchun tushlik qilmay, uzoq masofadan piyoda qatnaydiganlarini-da bilaman). Endi nima qilasiz? Yo qo'shimcha ish topib, o'quvchilarga bilim berishni ikkinchi darajaga qo'yish kerak (orada qog'ozbozliklar-u turli tadbirlar borligini aytmay qo'yaqolay), yo u-bu sabab topib, o'quvchilarning o'zidan pul undirasiz. Har ikki holda ham jabr ko'radigan o'quvchilar. Qo'shimcha ishda ishlaydigan ustozlar darsga be'tibor bo'ladi, ikkinchi holatda esa baribir pul beramiz-ku, deya o'quvchilarning o'zi o'qimay qo'yadi. Shunday vaziyatda ham bizga butun mehrini berib dars o'tguvchi, fidoiy ustozlar ham yo'q emasdi, albatta.

Kollejni besh bahoga tugatdim (maktabni ham). Endigi navbat universitetga. Repetitorga bormaganman. Adabiyotga qiziqqanim bois, shu sohada oliy o'quv yurtiga hujjat topshirdim. 12 yil o'qib kirish imtihonida olgan balimini aytishga uyalaman. Umuman maktab ko'rmagan, tavakkalchi ham testni mendan ko'proq ishlagan bo'lardi. Universitetga kirolmagan abiturient urushda mag'lub bo'lgan askar bilan barobar. Har tarafdan ta'nyu malomat yog'iladi. Hayot to'xtab qoladi. Endi bu noma'qchilikni oqlash uchun Rossiya-ga yo boshqa bir joyga mardikorlikka borib, pul topish kerak, yo'qsa shu bosim ostida repetitorga borib tayyorlanasan. Tanish-bilishlarning "Ha, o'qishga kirolmadimmi" deb gaplarini eshitmaslik uchun odamlarning ko'ziga tashlanmaslikka harakat qilasan. Mardikor bo'lmaslikning yagona yo'li o'qishga kirish.

Shaharga ketib qoldim. Uydagilar meni repetitorga boradi, deya o'ylashdi. Orqandan yil davomida pul ham yuborib turishdi. Bolaligimdan u-bu narsa qoralab yurardim. Shu sabab men uchun "o'quv markazi" Yozuvchilar uyushmasining viloyat bo'limi bo'ldi. O'tam repetitor uchun jo'natgan pullarni kundalik ehtiyojlarimga sarflab, yetmaganiga kafelarda, novvoyxonalarda, mardikor bozorida ishlash yurdim, shu zayl yana bir yil o'tdi. Bu gal ham o'qishdan yiqildim. Endi bosim yana-da ortdi. O'zimga yarasha katta orzularim bor. O'qishga kirmasam, ularni mardikor bozori, yo cho'pon kaltagiga almashishim kerak. Afsuski, repetitorga borishni ham jinim suymasdi. "To'tixona" deb kulib yurardim shu paytlari. Ikkinchi yil ham o'qishdan yiqilgach hamqishloqlarim qatnaydigan qo'shni tumandagi "To'tixona"ga borishga majbur bo'ldim. Endi nima bo'lganda ham qattiq o'qiyman.

O'quv markazlarini "To'tixona" deb haq ta'riflagan ekanman. Aslida undan bat-tarroq ham ekan. Bu yerda tushunishing

shart emas, kitobda qanday yozilgan bo'sa, shundayligicha yodlasang bo'ldi. Yodlab bo'lgach, test tutqazishadi: "Falon asardagi pistonchi qahramon qo'sh tabaqali eshikdan qay holda chiqdi?"

A) o'ng oyog'i bilan B) chap oyog'i bilan D) chiqmadi E) barcha javoblar to'g'ri".

Savolni biroz bo'rttirgan bo'lishim mumkin, ammo aslida ham shunday. Agar xato belgilab qo'ysang "shuni men tanlagan variantga o'xshatib yozsang bo'lmasmidi" deb asar muallifining yetti avlodini bo'ralatib so'kasan. Berilgan savolning asar mazmuniga umuman aloqasi yo'q. Badiiy asarni hamma har xil tushunadi. Ammo o'qishga kirish uchun erkin fikrni-ku qo'yatur, butunlay o'ylab ko'rishni ham unutish kerak. Faqat yodlash-faqat yodlash, tamom.

"To'tixona"da meni hayratga solgan narsa shu bo'ldiki, u yerda "ilm" olayotganlarning ko'pchiligida maqsad yo'q. Ya'ni qayerga o'qishga topshirishini ustoz hal qiladi. Qiziqish, biror kasbni sevish ular uchun yot tuyg'u. Qayerga bo'lishidan qat'i nazar, eng muhimi, o'qishga kirsa bo'ldi (yuqorida men aytgan bosimdan keyin abiturientning shu ahvolga kelishi tabiiy, aslida). O'zi qiziqmagan yo'nalishda ta'lim olgan talabanning kelajagi nima bo'ladi? Xudo ko'rsatmasin o'qituvchi bo'lsa, uning qo'lida tarbiya oladigan bolalar-chi?

Universitetga kirgach kursdoshlarimning deyarli 90 foizi sohaga umuman begona ekanligini ko'rdim. Boshqacha bo'lishi ham mumkinmi? Axir ular ham osmondan tushgan emas. Men bilgan abiturientlar kabi o'quv markazlaridan kelgan. Ularning-da eng yuqori maqsadi dunyoda tengi yo'q olim bo'lish, yangi ixtirolar yaratish, eng zo'r o'qituvchi bo'lib millat kelajagini tarbiyalash emas, qayerga bo'lsa ham o'qishga kirish bo'lgan. U yog'i bir gap bo'lar. Eng qizig'i, universitetdagi ustozlarning ham ko'pchiligi to'ti boqishga mukkasidan ketgan ekan. Yodla, aytib ber, tamom. Kursdoshlarimdan farqliman deb ayto'lmayman, chunki men ham ular qatori namunali to'timan. Sayramayman deyman-u, otam ming azobda to'layotgan kontrak pullarini o'ylayman. Menga o'xshaganlar jamiyatimizda ozchilik emas.

Hurmatli janob, millatning jon tomiri — ta'lim. Men sizga unga tushgan "yolg'on" atalmish virusning birgina ko'rinishiga misol keltirdim. Aslini olganda u ming xil qiyofada namoyon bo'ladi. Yana yolg'oniga o'xshagan viruslar uz deb o'ylaysizmi? Umumiy befarqlik keltirib chiqaruvchi, ko'ngilni bozorga aylantirgich, g'urur, tuyg'u, vatan... hamma-hammasini yamlamay yutuvchi, oxir-oqibat insonning o'zini-da virus qiyofasiga keltiruvchi, eh-ee! Ularning turlarini sanamay qo'yaqolay.

Bu viruslar qachon paydo bo'lgani bilmayman. Chunki men shu viruslar ichida tug'ildim va yashayapman. Bularning-da tojkor virus singari qachon yo'qolishi va davosi noma'lum. Ehtimol, barchamiz ular haqida tasavvurga ega bo'lsak, bu viruslar tushishi mumkin bo'lgan joylarni (ko'ngildir, balki ongdir) xuddi niqob taqqanimiz, masofa saqlaganimiz, qo'llarimizni qayta-qayta yuvgan kabi ularning himoyalanihshida yo'llarini toparmiz. Nima bo'lganda ham butun bir millat bexabar qolib ushbu viruslarning qurboni bo'lmas bas.

Hamma har xil ko'radi, tushunadi, ang-laydi. Har insonning istaklari, orzu-armon-lari, o'zi mutlaq to'g'ri deb bilgan haqiqatlar bor. Men-da shu buyuk millatning yaxshisi yoki yomon, fikri yoki kaltafahm, baxtsiz yo baxtiyor farzandi sifatida o'z fikrimni aytdim. Xohlang jilmaying, xohlang bo'ralatib so'king... uyog'i ixtiyoringiz.

Humoyun QUVONDIQOV

Fasning eng yaxshi ijodkori

Bahor fasli g'oliblari

Aziz mushtariylar! Mana, yana bir go'zal fasl — bahor bilan xayrlashib, "qalb"i qaynoq yoz faslini qarshi oldik. Bu galgi bahor o'zgacha bo'lgani rost. Butun dunyo xavf solgan koronavirus pandemiyasi sabab barcha sohalarida bo'lgani kabi maktablar ham yopildi. Karantin munosabati bilan gazetamiz muayyan vaqt chiqmagan bo'lsa-da, mo'ljallangan maqolalarni saytimiz va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarimiz orqali mushtariylarga ulashdik. Lekin tanlov g'olibligi uchun faol mualliflarimiz asosiy da'vogarlar safida bo'ldi. Albatta, ularning ichidan eng munosiblari saralandi va g'olib deya e'tirof etildi. G'oliblikni qo'lga kiritgan ijodkor mushtariylarimizga, ilg'or pedagog mualliflarimizga minnatdorlik bildiramiz. Ularni muvaffaqiyat bilan tabriklab, ijodiy barkamollik tilab qolamiz.

Tanlov nominatsiyalari nomi	G'olib material nomi va e'lon qilingan sanasi	G'olib mualliflar
«Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola»	Jannat ichidagi do'zax (18-mart)	Vahob Rahmonov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi
«Pedagog-muallifning dolzarb material»	Davlat tili muhofazasi qanday bo'lishi kerak? (20-may)	Inomjon Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
«Eng yaxshi ocherk yoki esse»	Men shunday bahorni bilaman (18-mart)	Humoyun Quvondiqov
«Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif»	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili o'qituvchilariga ochiq xat (4-mart)	Dilorom Yo'ldosheva, BuxDU filologiya fakulteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.

«Voqelikka munosib sharh yoki munosabat»	Millat tarixida matematika ta'limi (13-may)	Abdulla A'zamov, O'zFA akademigi
«Mazmunli intervyu, suhbat»	Yangi maqsadlar va rejalar: zamonaviy universitet qiyofasi (4-mart)	Shoira Boymurodova
«Sermazmun sahifa»	"Ma'rifat"ga maktublar (25-mart)	Suhrob Ziyodov
«Samarali metodik material»	Sinf kodeksi (4-mart)	Erkin Mirzayev, Yangiobod tumanidagi 12-maktab o'qituvchisi


Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.

«Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material»	Maktab binosi nega MTTga olib berildi? (25-mart)	G'anisher Akbarov
«Talaba-jurnalning yorqin publitsistik ishi»	O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir yoki repetitor mehnati kimlarga olqish olib kelmoqda? (11-mart)	Guloro Yusupova, O'zJOKU talabasi
«Jozibali fotolavha yoki surat»	Jasoratli yoshlarni tarbiyalaymiz (4-mart)	Burhon Rizoqulov

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.

Bolaligim kitobga oshno insonlar orasida o'tgani uchunmi, adabiyotga, she'riyatga mehr bilan ulg'aydim. Uyimizda kattagina kitob javonimiz bo'lib, kitoblarni otam ko'z qorachig'iday asrardi. Otam kitoblar sonini ko'paytirishdan also charchamas, kimdir so'rsa albatta, qaytarish sharti bilan berar edi. U kishining kitoblarni nomma-nom bilishi, har birini qayta-qayta o'qib chiqqaniga hayron qolar edik.

Haq yo'lidan adashmang!



Onam ham 35 yil kutubxonachi bo'lib ishladi. Otam bilan onamning suhbatlari ko'pincha kitoblar, asar qahramonlari haqida bo'lardi. Bolalikda oilada nimani ko'p ko'rsa, shunga o'rganar ekan odam. Biz ham kitobsevar bo'lib voyaga yetdik. Yillar o'tib mening ham shaxsiy kutubxonam bo'ldi. Turli kitoblar bilan uni boyitdim, takror-takror o'qidim, ularni qadrlay boshladim. Otanam bizga bu borada katta o'rnak bo'lgan ekan.

Bularni eslashimga sabab bugungi kun bolalari va ota-onalari. Hozirgi avlod kitobdan ancha yiroqlashgan. Zamonaviy texnika vositalari quliga aylanib borayotgani ham haqiqat. Ikki qizaloqning suhbatlari e'tiborimni tortdi:

— Oyimning telefonida zo'r o'yinlar bor. Doim o'ynayman, yoqmay qolsa, yangisini "skachat" qilaman.

— Bizning uyimizda "wi-fi" bor. Internet tekin, istagan narsangni ko'rish imkoni bor. Dadamning planshetini o'zim ishlattaman. Xohlagan vaqtimda o'ynayman. Hech kim urushmaydi.

— Oyim yangi telefon olsa, menga o'zinikini berar ekan. O'shanda men ham kun bo'yi o'yin o'ynayman.

Suhbatning davomi o'sha telefon, planshetdagi o'yinlar haqida bo'ldi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bu qadar o'yinlarga mukkasidan ketishiga sabab nima deb o'ylaysiz? Memimcha onalarning bee'tiborligi va kitobsizligi. Nega bolalar ertaklar yoki oxirgi o'qigan kitoblari haqida gaplashmaydi, chunki uyida bunday holat bo'lmagan. Onalarimizning asosiy vaqti ijtimoiy tarmoqlarda chatlashish, internet xabarlarini o'qish, virtual suhbatlardan ortmay qolgan. Shuning uchun ham bolalar uyida ko'rganini qiladi. Karantin bahonasida bunga yana bir karra amin bo'ldim. Onlayn darslar davomida ayrim onalar farzandiga yordam berishda yalqovlik qildi. Emishki, dars qildirish, o'qitish ustozning ishi, shuning uchun bizga davlat maosh berar ekan. Bunday fikrlar faqat umrida kitob ko'rmagan insonlardangina chiqmaydimi? O'z farzandining kelajagiga befarqlik bilan qaragan onadan boshqa nimani ham kutish mumkin? Ertaga u ayol tarbiyalagan bola ham xuddi shunday dunyoqarashi tor, qo'lidan biror ish kelmaydigan, yalqov bo'lib voyaga yetmaydimi?

Oilada yaxshi muhit farzand kelajagining asosi. Onalarimizga shuni aytgan bo'lardimki, farzandingiz kelajakda ma'naviyatli, komil inson bo'lishini xohlasangiz, o'zingiz qilayotgan ishlariga, amallaringizga bir oyna tuting. Bolalik tezda o'tib ketadigan davr. Siz shu davrda farzandingiz bilan ko'proq muloqot qilib, uni mutolaaga undasangiz, bola shunday voyaga yetadi. Sizning o'zingina befarqligingiz sabab bolangiz go'zal kelajakdan mahrum bo'lishi mumkin. Mening gaplarimni o'quvchilarini kelgusida yaxshi inson sifatida ko'rishni xohlayotgan ustozning kuyinishi sifatida qabul qiling.

Shahnoza ESHMURODOVA,
Jarqo'rg'on tumanidagi
21-maktabning
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Tilim tilim-tilim

Grammatikaga yem bo'lgan o'zbek tili

☾ Kasbim taqozosiga ko'ra, har yili yangi o'quv yili boshlandi deguncha 20–25 talabani olib “adabiyotchi” sherigim bilan maktabga ravona bo'lamiz. Bu jarayonning nomi ko'pchilikka yaxshi tanish: amaliyot. Oliy dargoh auditoriyalarida uch yil o'tirgan talabaning maktab hayotiga ko'nikishi boshida biroz qiyinroq kechadi. Keyin maktab izdihomi amaliyotchi talabani ham, amaliyotchi ustozlarni ham o'z izmiga solib oladi. Maktab o'qituvchilarining darslarini kuzatgan talabalarining birida hayajon, birida tajanglik...

Amaliyotchi talabalar asta-sekin sinfxonalarda dars o'tishni boshlashadi. Tanish manzara: talabalarimiz ko'proq adabiyot darslarini o'tishga talabgor bo'lishadi va odatda buni durustgina uddalaydilar. Ammo ona tilidan (ham) dars o'tish rejasidan chiqib ketisholmaydi.

A'lochi, tabiatan jiddiy talabam Nozimaxon 5-sinfda ona tili darsini o'tiyapti. Doskaga mavzu yozilgan: “Kesim. Fe'l kesim va ot kesim”.

Amaliyotchi talaba dars uchun puxta tayyorgarlik ko'rgan: dars mazmunini yozib (fan o'qituvchisi, metodist o'qituvchi, maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, fan bo'yicha sho'ba raisi, kursdosh opponentiga) imzo bilan tasdiqlatgan. Ko'rgazma tayyorlagan. Tarqatma materiallari ham bor. Kursdoshlari bilan texnik vositalarni ham tayyorlashibdi... Naq 8 nafar o'qituvchi-yu bo'lajak muallim-u muallimalar ko'zimizni tikib, jiddiy qiyofada tahlil daftarni qoralab dars kuzatyapmiz. O'qituvchi fe'l kesim va ot kesim haqida ma'lumot beradi... Misollar aytadi. Ko'rgazmadan ko'rsatadi... Endi navbat o'quvchilarga keladi. Ular darslikdagi mavzu ostida berilgan 2-3 topshiriqni bajarib berishlari kerak. Topshiriqlar ham oddiy: Berilgan gaplar tarkibidan fe'l kesim va ot kesimni toping.

O'quvchilar navbat bilan gaplarni o'qiydilar: *Karimning onasi — shifokor.*

O'qituvchi o'quvchini dadil so'roqqa tutadi:

— Xo'sh, bu gapda kesim qani?

O'qituvchi hozirgina kesim gapning oxirida kelishini uqtirgani “foydala beradi”.

— Shifokor, — deydi o'quvchi.

— Barakalla. Xo'sh, bu fe'l kesimmi, ot kesim?

— Fe'l kesim.

O'qituvchining qoshlari chimiriladi. Uning avzoyiga qarab o'quvchining javobi o'zgaradi.

— Ot kesim.

Yana misollar o'qiladi: *Qovun shirin. Ikki o'n besh — bir o'ttiz.*

Bola bechoralarning eng a'lochilari zo'rg'a chiranib fe'l bilan otning kesim vazifasida kelishini tushunganlarida muammo paydo bo'ladi. Shirin so'zi sifat bo'lsa, o'ttiz so'zi son bo'lsa... Yana o'qituvchi “Ikki o'n besh — bir

o'ttiz” gapida bir o'ttiz kesim ekanligini “qistirib qo'yadi”.

Kamiga misollar tarkibida she'riy parcha ham bor ekan: *Keldi bahor, gulbahor, Erib bitdi oppoq qor...*

— Gapning kesimi qani? — savolini takrorlaydi ko'zleri tim qora “yangi ustoz”.

— Qor, — deydi o'quvchi yuqoridagi “tushuntirish”ni eslab.

Endi “yangi ustoz”ning tim qora ko'zleri o't bo'lib qadaladi.

O'quvchi gap tarkibidagi har bir so'zni “kesim” deb ko'radi... “bitdi” so'ziga bog'anda o'qituvchining chehrasi yorishadi. Bolalar zerikishadi. Kattalarning esa ikki baravar ko'proq zerikishgani dam-badam “ovozi o'chirilgan” telefon soatiga qarashlaridan seziladi. Bolalar gaplarni o'qiganda, mazmunini tushuntirganlarida, doskada yoki daftarga yozganlarida, o'yin-topshiriqni bajaranganlarida “jonlanishadi”. Biroq gap tarkibidan fe'l kesim va ot kesimni topish qiyinligicha qolaveradi...

Bir bolaga qarab xayolga tolaman. Eh, bolajonim. Hali bu mavzuning davomida sodda fe'l kesim, murakkab fe'l kesim; to'liq kesim, noto'liq kesim; sodda ot kesim, murakkab ot kesim, bog'lama; kesimning turg'un birikmalar bilan ifodalinishi, kesimning ajralmas birikmalar bilan ifodalinishi kabi qator mavzular borligini va bu “aqli toshgan kattalar” sen istaysanmi, yo'qmi, baribir, seni ona tili darslari orqali “tilshunos”ga aylantirmoqchi ekanliklarini bilmaysan. Murg'ak qalbing bu zadalikdan qochishga undaydi seni. O'zingni chet tili darslari bag'riga otasan. Chunki u darslarda sen uchun so'z olami ochiladi: so'z yodlaysan, so'zning ma'nosini tushunasan, o'zga tilda kuylaysan, she'rilar yodlaysan, dialoglar tuzasan... Izingdan grammatika balosi quvib yetmaydi...

Mabodo, senda tilshunos bo'lish istagi paydo bo'lsa ham, oldindan tayyorlanib qo'y: biz maktabda alohida, litsey-kollejda alohida, oliy ta'limda alohida grammatikalarni o'qitamiz va ular mantiqan bir-birini rad etib turadi.

Qo'ng'iroq chalinadi. Hammamiz chuqur tin olamiz: xayriyat. Men sinf o'quvchilarining ham, amaliyotchi talabamning ham ko'zlariga qarashga uyalaman.

Dilorom YO'LDOSHEVA,
BuxDU dotsenti

☾ Bola tarbiyasi hamisha yetakchi mavzulardan biri bo'lib kelgan. O'zini hurmat qilgan va kelajagiga bee'tibor bo'lmagan inson borki, farzandining tarbiyasi, ta'lim olishi va kasb-kor egallashiga befarq bo'lmaydi. Tan olish kerak, bundan 15–20 yillar avval bola tarbiyasi va ta'lim olishi borasidagi tushunchalarimiz biroz boshqacha edi.

“Ustoz va ota-ona” yoxud ta'limning boshlang'ich bosqichi

Zamonning shiddatini qarangi, bugunning bolalari bog'cha yoshidanoq o'qish-yozish va chizishni o'rganib maktabga bormoqda. Bu juda qvonarli hol. Chunki inson miyasi lumotlarning 70 foizini aynan 5 yoshga qadar qabul qiladi. Bu muddat garchi bolalik sho'xliklari bilan tutashib ketsa-da, ota-onalar va tarbiyachilardan katta mas'uliyat va ehtiyotkorlikni talab etadi. Xo'sh, boladagi qobiliyat kurtaklarining bo'y cho'zishi uchun nimalarga e'tibor berishimiz kerak?

Bola tarbiyasi bilan bog'liq muammoga duch kelmagan odam yo'q. Bunday muammolarni hal etishda har kimning o'z yo'li, uslubi bor. Biroq oddiy vaziyatlarda ham to'g'ri qaror qilolmay farzandi va o'zi orasidagi munosabatlarga shikast yetkazib qo'yadigan kishilar bor. Yoki birdaniga so'nggi choraga — bolani jazolash, hatto kaltaklashga chog'lanadiganlar ham kam emas. Bu esa bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning aqliy rivojlanishiga, dunyoqarashining to'g'ri shakllanishiga zarar yetkazadi.

Zamon shiddat bilan rivojlanayotir. Kecha yangilik deb jar solingan ixtiro bugun ahamiyatini yo'qotmoqda. Shunday ekan, bolam yaxshi inson bo'lsin, zamon bilan hamnafas yashasin, desangiz, boshlang'ich ta'limga ko'proq e'tibor bering. Ustozlar bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'ying.

“Ustoz va ota-ona” degan loyiha asosida hamfikrlkda ish boshlang. Bolaning ovqatlanishidan tortib dars qilishi-yu, ko'cha, uy, maktab odobigicha, uxlash vaqtidan uyg'onish soatigacha hamfikrlkda ishlamoq lozim. Dastur asosida ish olib borish va unga qat'iy amal qilish kerak. Bu albatta natija beradi. Avvalgi dars o'tish va tarbiya berish usulini o'zgartirishimiz shart. Negadir ongimizga “Yaxshi ota-ona uy vazifasini bola bilan birga bajarishi kerak”, degan fikr o'rnatib qolgan. Bu usulni faqat birinchi sinfda bolaga vaqtdan foydalanishni o'rgatish uchun qo'llash mumkin. Keyinchalik esa ota-ona bolaga zarur hollarda, o'zi so'raganidagina yordam berishi kerak. Uy vazifasini kattalarning o'zi bajarib berishi mutlaqo xunuk holat. Bolani rag'batlantirish juda muhim, ammo uni “sotib olish” yaramaydi. Bolaga dars va o'qish kattalarning ishlashi kabi zarur narsa ekanini yaxshilab tushuntirish lozim.

√ Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim olishning ahamiyati haqida ertak yo hikoya o'qib bersa bo'ladi. Shunda bola ertak qahramonlaridan namuna oladi.

√ Bolaning o'qishiga me'yoridan ortiq jiddiylik bilan yondashish yaramaydi. Maktabda olingan past bahoni haqorat sifatida qabul qilib, undan fojea yasamaslik kerak.

√ Doim do'stini yoki qo'shni bolani misol qilib keltiraverish ham yaxshimas. Undan ko'ra bolada raqobat kayfiyatini uyg'otish samarali.

√ Bolaning qiziqishlarini hisobga olib, o'ziga tanlash imkonini qoldirgan holda sport yo san'at to'garagiga olib borish darkor. Agar u biror to'garakka bir oycha borib, yoqmagani aytsa, uni majburlash yaxshimas. Boshqa to'garak yo ustoz topib bergan ma'kul. Ko'pchilik orasida bo'lish bolani odamovilikdan saqlaydi va uni doim olg'a intilib yashashga undaydi.

√ Ko'pchilik ota-onalar an'anaviy fikrlaydi: yomon o'qigan universitetga kirolmaydi! Natijani yaxshilashga urinish zarur. Lekin masalaning mohiyati bunda emas. Siz bolaga boshqachasiga ta'sir qilishga urining: aytaylik, ota-onalar majlisida uni maqtashgani sizga yoqqanini, u bilan faxrlanishingizni aytning.

Eng muhimi, bolalar bilim qandaydir oliy maqsadlarga yetishish, yaxshi yashash uchun emas, eng birinchi o'rinda, yaxshi inson bo'lish uchun kerakligini tushunib yetsin.

√ Bolaning gaplariga ahamiyat bermaslik, uni ko'p gapirish yoki ezmalikka aylash yaxshilikka olib bormaydi. Natijada suhbat qurish ishtiyoqi so'nadi, so'z boyligi va ijtimoiy zehni sustlashadi.

√ Oiladagi nosog'lom muhit ham bola qobiliyatiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Oila a'zolarining baqir-chaqiri va bir-biriga yomon munosabatda bo'lishi natijasida bolakay ruhan eziladi. Tortinchoq va qo'rqqoq bo'lib qoladi.

√ Bolaning olam haqida o'z qarashlari va tasavvurlari bor. Shu bois uning ustidan kulish, chizgan rasmlari yoki qilgan ishini taqdirlamaslik natijasida undagi motivatsiya pasayib ketadi.

Bola borki, hayot munavvar. Qadrlri ota-onalar, yana takror aytaman: bolangiz ertaga olim, daho, kashfiyotchi bo'lishini istasangiz, albatta, o'qituvchisi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ying. “Ustoz va ota-ona” loyihasini bolangizning qiziqishiga qarab tuzib chiqing.

Unutmang, bola boshdan, degan gap bekoraga aytilmagan.

Dilnoz MANSUROVA,
Shahrisabz tuman XTB
boshlang'ich ta'lim metodisti

Ona tili va adabiyot fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

№	Savol	A	B	C	D
26.	Bunda na g'am bor, na azob, unda yashash quvonchi, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi. Ushbu gapda nechta tub mavhum ot bor?	5ta	6ta	1ta	4ta
27.	Qaysi gapda -ir qo'shimchasi bilan hosil qilingan ortirma nisbatdagi fe'l qatnashgan?	Ishtirak bitirmoqqa kifoyat yaxshi.	- Yolg'on! Yolg'on! - deb baqirdi.	Choponiga cho'nqayib o'tirdi.	O'ta qat'iylik bilan keskin va uzoq gapirdi.
28.	Qaysi javobdagi barcha so'zlar bo'g'inga to'g'ri ajratilgan?	de-ngiz, jon-ga, kongress	shtan-ga, ko'r-di-ngiz, ton-gi	yen-gil-di, ber-din-giz, kongress	tu-ngi, ya-ngi, si-ngil
29.	Mumtoz she'r ilimga ko'ra odatda raviv so'zning asosida (o'ziga) bo'lishi talab etilgan. Quyidagi qaysi baytda bu talabdan chetga chiqish kuzatiladi?	Ikki mahbubni ko'rdim, bir-birinin ko'rman, Ikkinchisim o'rtasiga, do'stlar, qil ham sig'magan.	Ul nadurkim, sabzto'nik, yoz yog' ochning boshida, Qish yalang'och aylagay barcha xaloviy qoshida.	Ko'nglung istar yorlar birla hamesha shod bo'l, Mendin-u, kimdinki, ko'nglung istamas - ozod bo'l.	Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul, Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
30.	Qaysi javobda Bobur haqida ma'lumot berilgan?	Xo'ja Ahroming "Volidiya" asarini she'ri yo'ri bilan o'zbekchaga o'g'irgan.	Adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo'lmish "Qasidai nasihat" asarining muallifidir.	Shoir aruz vazni haqida "Imi ash'orning bo'lmish "Qasidai avzoni" asarini yozgan.	Shoir boshqalar bilan olib borgan yozishmalari - xatirani to'plab "Munshaot" asarini tuzgan.
31.	"Xamsa"dagi qaysi qahramon: "U dengiz ichida go'yo nahang kabi ofat (bo'lsa), To'qayda sher-u yo'lbars(day edi)" deya ta'riflanadi?	Jobir	Sheruya	Xisrav	Suhayl
32.	Hamid Olimjonning "Oyul bilan Baxtiyor" erak-dostoni haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?	Oyul: "Tiriklikda to'yimovdang sira qon-yoshga, Mana endi to'yib ol, boshing ko'mib ich", deya zolim xonning tanasidan uzilgan boshini chuqurga otadi.	Saroyda xizmat qiladigan, xondan juda ko'p jabr-u jafo ko'rgan Tarlon Oyulgini qutqarishga jazm qiladi.	Ushbu dostonda Oyulgning xalqni xon zulmidan xalos qilish niyatida katta qo'shin bilan Jambiga hujum qilishi va g'alabaga erishishi tasvirlanadi.	Ushbu dostonda Oyul tabiatida o'zbek qizlariga xos mardonalik, tantilik, tabirkorlik fazilatlarini yaqqol ko'zga tashlanadi.
33.	Qaysi javobda "Uloqda" hikoyasida uchraydigan obrazlar keltirilgan?	Nurxon, Shokir mishiqli	Qosim cho'loq, Shokir mishiqli	Haydar soqov, A'zam	Qosim cho'loq, A'zam
34.	"... ko'zining yoshini artib, shunday nitinga (uzukka) qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan duoli vozuv bor; olam mamalakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo'lsa, oti bor; ba'zi-ba'zi juda nozik, uzik(yeruk) suluvning ham oti bor, ham surati bor, shu uzukning bir chetida Qoraxon podshoning qizi - ... degan bir qizning oti bor, ham surati bor". Ushbu parchadagi nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan ismlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	Ravshanbek, Zulxumor	Ravshanbek, Gulonor	Kuntug'mish, Xolbeka	Ko'kaldosh, Oybachin
35.	U yoshgina bo'lsa-da, o'zga yurtga yolgiz otdandi. O'tasi unga: "Bir qiz uchun unutmagan bizlarni, Unutma otang ham onang qarzin!" "O'zingdan pastlarman har yo'lga ketma! Bolam, aytgan nasihatim unutma", "Bir g'aribni ko'rsang, zinhor og'ritma", deya nasihatlar beradi. Ushbu parchada fikr yuritilgan xalq dostonlaridan biridagi yoshgina qahramon kim?	Ravshan	Kuntug'mish	Alpomish	Gurkiboy
36.	Dostonlarning qaysi birida bosh qahramon dor ostiga keltirilganda ham qo'rqmasdan amaldorlarga qarab: "Bir nechalor o'z holini chengnamas, Sen aytgan odaming, zolim, men emas, Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman! Aziz boshing oyog'imga teng emas..." - deb aytgan olgani ifoda etiladi?	"Ravshan"	"Kuntug'mish"	"Alpomish"	"Oyul bilan Baxtiyor"
37.	Biroz yurishgandan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'rabdilar. Ushbu gapda qatnashgan fe'llar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.	Gapda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.	Gapda fe'l vazifa shakllarining ikki turi qatnashgan.	Gapdagi barcha fe'llar tub fe'llar sanaladi.	Gapdagi barcha fe'llar o'timsiz fe'llar sanaladi.
38.	Qaysi gapda majhul nisbatdagi va birgalik nisbatdagi fe'llar qatnashgan?	Ozoda gilamlar to'shalgan past-baland chorpyoyalar ustida odamlar yuz ichishadi, ish choyidan maslahat qilishadi.	Bolalar uni yaxshi ko'rishib, unga yordam berishibdi.	Botayotgan quyoshning horg'in nuri qori tog' qo'ri qisim, uning tepasida uvadaday osilib turgan bulutni bir lahza qizartirdi-da, so'ndi.	Ko'zni quvnatadigan gulzor yonidagi yam-yashil daraxt tagiga qo'yilgan kattagina so'rida miritqib dam olish mumkin.
39.	Qaysi javobda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan?	Mehmonlar qorovulning qistasiga qaramay ichkariga kirishmadi.	Hovliga suvlar sepgilgan, xontaxta atrofiga duxoba ko'rpachalar to'shalgan.	Bitor mamlakatda jabr-zulm, fiq-faqd kuchayib ketsa, podshoh adolati siyosati bilan zulmning ildizini yo'qotishi lozim.	Men yashikdagi shaftolilarni o'ynab yurgan bolalarga berdim.
40.	Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamihattiklik, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Ushbu gapda ishtirok etgan otlarga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.	Ushbu gapda tub va yasama otlarning qatnashishi kuzatiladi.	Ushbu gapdagi so'z birkimatalarida yasama otlar hokim qism va tobe qism vazifasini bajargan.	Ushbu gapdagi barcha otlar mavhum otlar sanaladi.	Ushbu gapdagi otlar aniqlikchiligi, ega, to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

№	Savol	A	B	C	D
41.	Xalq dostonlaridan birida: "O'laman, deb marq qulidan toyama, Yo'qchilik jo'mardning ko'zin o'yama, Oqsuvdan yilqini o'zim haydadim, Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama", - deya dorga hukm qilinganda ham mardlikni qo'ldan bermagan, yolg'on gapirishni o'ziga ep ko'rman qahramon kim?	Mohiboy	Qorajon	Ravshan	Kuntug'mish
42.	Qaysi gapda imloviy xato yozilgan so'z to'ldiruvchi vazifasida kelgan?	Fikr-muloxazalarimni kengash a'zolariga bildirdim.	Xalq uchun o'z umrini baxshida etgan insonning eng oliy mukofot hisoblanadi.	Xalq ezosi uchun eng oliy mukofot hisoblanadi.	Shirin uyqudan voz kechub, kitoblar bilan do'st tutangan inson vaqtlar o'tib muvaffaqiyatga erishadi.
43.	Qaysi javobda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik kuzatilmaydi?	Vaqting ketdi - baxting ketdi.	Yer dehqonning qonidir - suv joni.	Avval ular bizga yetib olishsin keyin birga jo'namiz.	Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron hech narasi do'vruklarima qo'rqita olmadi.
44.	Biz mustaqil O'zbekistonning farzandlarimiz. Bu yurtda yashashni biz o'zimizga sharafl deb bilamiz. Ushbu parchadagi ismlarga mansub so'zlar tarkibidagi munosabat shakllari sonini aniqlang.	7 ta	6 ta	8 ta	9 ta
45.	Quyidagi qaysi gaplarda tushum kelishigining belgisi qo'llanishi kuzatilmaydi? 1. Bolalariga ertak va naqlar aytib bera boshladi. 2. Biz uchun Vatanni sevmok sharaftir. 3. Bugungi ishni ertaga qo'yma. 4. Mevazorlar gulini to'kmoqda. 5. Bugun do'kondan kitob sotib olish kerak.	2, 3, 4	1, 3, 4	2, 4, 5	3, 4, 5
46.	Qaysi javobda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?	Bu kishi qarib ham qo'yilmadi, yoqimsiz hazil qilaveradi.	Paxta gulli piyolalarga choy quyildi.	Chinni kosalarga sut quyildi.	Bolalar oldiga issiq non va qaymoq qo'yildi.
47.	Qaysi gapda asosi ot turkumiga oid so'z bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashgan?	Ish qurollari sozlab, hasharga shay qilib qo'yildi.	Jarohati ochilib ketib, qonagan yaxshi bo'lmabdi.	Yozgi ta'tilda buyimikida dam olmoqchiman.	Men kasal bo'lgan yigini o'yab juda kuyindim.
48.	Yulduzni benarvon uradigan bunday odamlardan hayiqish kerak. Ushbu gapda nechta so'z birkimasi bor?	3ta	4ta	5ta	6ta
49.	Hayotga romantik ko'z bilan qaraydigan, hamisha ezgulikka intilgan ijodkorming ijodiy faoliyatida qahramonlik ko'rsatgan odamlarning jasorati tasvirlangan balladalar alohida o'rin tutadi. Ayrim balladalarida o'zgalarning vatani bosib olgan kimsalarga qarshi kurashgan qahramon bolalar hayoti tasvirlanadi. U "Jamila", "Ona va farzand" va "Raymonda" kabi balladalar muallifi sanaladi. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?	Shuhrat	Asqad Muxtor	Maqsud Shayxzoda	Mirmuhsin
50.	Qaysi javobda Shuhratning faqat balladalarini berilgan?	"Guldursun", "Uch qiz afsonasi", "Qora va oq aravacha haqida ertak"	"Ona va farzand", "Mehrol", "Farzand"	"Orzu va qasos", "So'lmas chechaklar", "Mehrol"	"Mardlik afsonasi", "Jannat qidirganlar", "Mashrab"
51.	Bu asarda buyuk muhabbat rishtasi bilan bir-biriga mangu bog'langan go'zal insonlarning butun hayot yo'l tarannum etilgan. Qoplonbekka cheksiz kuch-quvvat, mardlik va shijoat, Oymomoga behad xushro'ylikni ato etgan ona tabiat, afsuski, ularni farzand ne'matidan bebahra qilganligi aks ettirilgan. Ushbu parchada Tog'ay Murodning qaysi asari haqida ma'lumot berilgan?	"Oydinda yurgan odamlar"	"Otamdan qolgan dalalar"	"Yulduzlar mangu yonadi"	"Ot kishnagan oqshom"
52.	Tog'ay Murodning qaysi asarida butun umr davomida farzandsizlik azobidan qiynalgan, qo'shni kelining beshikdagi bolasini ovutib o'tirgandana onalik baxtidan bir lahza totinib dunyodan ko'z yumgan Oymomo obrazini uchraydi?	"Oydinda yurgan odamlar"	"Otamdan qolgan dalalar"	"Yulduzlar mangu yonadi"	"Ot kishnagan oqshom"
53.	Quyida berilganlardan qaysilari shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan asosdan yasalgan shakldosh yasama so'zlar sanaladi? 1) bo'sha; 2) oqish; 3) yozmoq; 4) toza; 5) kechik; 6) chopmoq	1, 5	2, 3, 4, 5	1, 2, 5	3, 4, 6
54.	Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir ishi va har bir so'zi bebaho gavhardir. Ushbu gapdagi gap bo'laklariga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.	Qaralinishlar ega vazifasini bajargan.	Olmosh bilan ifodalangan aniqlikchiligi va hol qatnashgan.	Barcha sifatlovchi aniqlikchilari sifat bilan ifodalangan.	Sifatlanmishni bog' vazifasini bajarishi kuzatiladi.
55.	"Mirzo Ulug'bek" fojiasidagi Abbos obrazi haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.	U Said Obidning o'g'li, Abdullatning mahrami edi.	U Samarqandning qozisi edi.	Ulug'bekning shogirdi edi.	U - dehqon, Ulug'bekka sodiq kishilardan biri edi.
56.	She'rim! Yana o'zing yaxshisan, Boqqa kirsang, gullar sharmanda. Bir men emas, hayot shaxsian, Jonim kabi yashaysan manda. "Yana she'rimga" she'ridan o'rin olgan ushbu misralar muallifi aniqlang.	Usmon Nosir	Cho'lpon	Mirtemir	Hamid Olimjon
57.	Ba'zida bir nafas olgulik muddat Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik... Ushbu takrorlanmas misralar muallifi aniqlang.	G'afur G'ulom	Usmon Nosir	Cho'lpon	Asqad Muxtor

(Davomi kelgusi sonlarda.)

Boy va go'zal o'zbek tili har qanday fikrni ravon, chiroyli ifodalash imkonini beradi. Faqat boshqa tillardan kirgan so'zlar va o'zimizning e'tiborsizligimiz uni buzayapti.

OAV tili hayotdan uzilib qolgan

Tilning rivojlanganini ko'rsatadigan jihatlardan biri yozma va og'zaki nutqning bir-biriga uyg'unligidir. Ingliz, ispan, rus tillarida shunday — oddiy odamning gapirishi bilan televideniye, matbuot tili yaqin.

Bizda esa rasmiy til xalq tilidan juda uzoqlashib ketgan. Bu bugun tilshunoslarning o'rganishi kerak bo'lgan asosiy muammolardan biri, deb o'ylayman. Eng qizig'i, bu nomutanosiblik o'zbek tilining kamchiligi emas, balki keyinchalik yuzaga kelgan, tarjima oqibatida tilimizga putur yetkazilgan.

Tarixga nazar tashlasak, turkiy tilimizga avval arab, so'ng fors tili katta ta'sir ko'rsatgan. O'tgan asrda esa rus tili uni yana "jarohatladi". Bugun yozma nutqga kirib qolgan ko'pdan-ko'p g'aliz so'z va birikmalar o'sha davrda rus tilidagi rasmiy matnlarni tarjima qilish jarayonida paydo bo'lgan.

Masalan, gapning boshidayoq "Ta'kidlanganidek" deyish o'zbek tiliga xos emas. Bu o'sha davr nutqlaridagi "otmecheno" so'zining tarjimasi. "Qayd etish joizki", "shuningdek", "shu bilan birga", "bundan tashqari" kabi sun'iy so'z va birikmalar ham ana shunday paydo bo'lgan.

Oddiy tinglovchi sifatida eng a'ashim keladigani "... muhim rol o'ynamoqda" degan gap. Ma'lumki, bu rus tilidagi "ig'rayut vajnuyu rol" iborasining so'zmaso'z tarjimasi. Xo'p, sobiq ittifoq payti tarjimonlar asosiy matndan chetga chiqolmay shunday degandir, lekin hozirgi jurnalistlar ham bo'lsa-bo'lmasa, o'ylab ham o'tirmay shunday deyaveradi. Axir, o'zbek tilida "rol" degan so'z umuman yo'q-ku!

Yoki "muhim ahamiyat kasb etmoqda" degan birikmani olaylik. Bu ham boshqa tillar ta'sirida yasalgan, sun'iy, jimjimador. Lug'aviy jihatdan qaralsa, "muhim"ning ham, "ahamiyat"ning ham

o'zagi bir. "Kasb" so'zi arabcha, "etmoq" so'zi turkcha. Ikkalasi qo'shilib, o'ta badiiy fe'l hosil qilgan. Xalq tilidan juda uzoq.

Bugun televideniya ham ikki gapning birida uchraydigan "amalg oshirish, amalga oshirilayotgan ishlar" degan birikmalar ham shunday. Masalan, hech qachon o'zbek onasi bolasiga "anavi ishini amalga oshirdingmi" demaydi. O'zimiz ham "mana bunday qildim" deymiz, "amalga oshirdim?" demaymiz.

Ham o'qituvchi, ham shu tilda gaplashadigan odam sifatida bu holatlarni hazm qilolmayman. Tilimizga yot bunday unsurlarni kimlar tiqishtirgan, nimaga kerak bo'lgan, deb o'ylab qolaman. Muxbir-u suxandonlar oddiy, ravon, tushunarli gapirsa, biroq urushadimi, tushunmayman.

Alisher Navoiy bobomiz yig'lash holatini anglatadigan turkcha so'zlarning yig'lamoq, ingramoq, singramoq, yig'lamsinmoq, o'kirmoq, siqtamoq kabi bir necha turini keltirgani ma'lum. Abdurauf Fitrat "bilmol" so'zi bilan tuslanuvchi 28 xil fe'l va sifatlar borligini isbotlagan. Bugungi ijodkorlar ham o'zgina izlanib, o'ylab ko'rib, fikrini o'zbekcha ifodalashga harakat qilsa, yaxshi bo'lardi.

Til — tirik jon, degan gap bor. Vaqt o'tgani sayin so'zlar, gaplar soddalashib boradi. Xalqimiz ham subhatlashganda sodda, lo'nda gapiradi. Jimjimador, balandparvoz so'zlar bilan o'zini ham, eshituvchini ham qiynamaydi. Biz, o'qituvchilar ham ona tili darsida bunday gaplarni o'rgatmaymiz.

Menimcha, yuqoridagi istilohlarni

o'tgan asrda qaysidir tarjimon yoki yozuvchi qo'llagan-u shundan beri faqat jurnalistlar o'rtasida tildan tilga o'tib kelmoqda. Yosh muxbirlar bilib-bilmay, ma'nosiga yetib-yetmay ularni o'zlashtirayapti. Chunki bunday so'zlar faqat ommaviy axborot vositalarida bor, xalq tiliga o'mashmagan.

Yana bir mulohaza. OAV tili hayotdan shunchalik uzilib qolgani uchun ham intervyular mujmal chiqadi. Ko'p rahbarlaru deputatlar rasmiy gapirmoqchi bo'lib, dovdirab qoladi.

Tilimiz rivojiga xalaqit berayotgan yana bir sabab tashkilotlar nomlarining haddan tashqari uzun, talaffuz uchun qiyinligidir. Masalan, hammamiz "mahalla", "mahalla idorasi" deymiz. Lekin hujjatlarda bu idora fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, deb ataladi. Ushbu tizimda eng yuqori tashkilot esa "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi" deyilarkan. Bilmadim-u, bu nomni aytish tugul, eslab qolish ham qiyin. O'sha yerda ishlaydiganlarning o'zi ham "qayerda ishlaysan?" desa, to'liq aytmasa kerak.

Tashkilotlar tuzilayotganda mas'ullar ularni qisqa, sodda nomlashsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, xalqqa osonroq singardi. Masalan, nomning o'zida hamma funksiyasini aytish shart emas-ku! Qanaqa idoraligi, nimalarga tegishligini nizomda yozib, nomni ikki-uch so'zdan iborat qilib qo'ysa bo'ladi-ku.

Yana bir achinarli tomoni, hozirgi yoshlarda imlo savodi juda pasayib ketdi. Buni uyga vazifalarni tekshirganimizda, diktant olganimizda yaqqol sezamiz. Ilgari xato yozish uyat hisoblanardi. Kitoblar, gazetalardan so'zlarning qanday yozilishini o'rganardik. Hozir esa ularning o'zida xatolar ko'p uchraydi, bir xillik yo'q.

Masalan, hamma lug'atlarda

"xomashyo" so'zi qo'shib yozilgan. Lekin bugun ba'zi gazetalarda "xomashyo" shaklida ajratib yozilmoqda. Hatto ayrim farmonu qarorlar matnida ham shunday ketganiga ko'zim tushgan.

"Temir yo'l", "energiya tejamkor" kabi so'z birikmalari ayrim nashrlarda alohida, boshqalarida qo'shib yozilayapti. "Ko'pmillatli" so'zi qo'shib, "ko'p qavatli" ajratib yoziladi. Qaysi biri to'g'ri? Bu borada qachon bir xillikka erishamiz?

Yoki "janubiy koreyalik", "buyuk britaniyalik" so'zlarini olaylik. Qoida bo'yicha "-lik" qo'shimchasi qo'shilsa, kichkina harflar bilan yoziladi. Lekin bu holatlarda mamlakat nomi ikki so'zdan iborat bo'lgani uchun ayrimlar "Janubiy koreyalik" tarzida yozmoqda.

Yana bir xatolik ko'p joylarda "... notijorat tashkilot" deb yozilishidir. Axir bu yerda "notijorat" so'zi sifat bo'lib kelayapti-ku. Ya'ni, "tijorat bilan shug'ullanmaydigan tashkilot" deganda oxiriga "i" qo'yamaymiz.

Afsuski, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Tibbiyot va texnikaga oid so'zlar muammosi alohida katta bir mavzu.

Boy va go'zal o'zbek tili har qanday fikrni ravon, chiroyli ifodalash imkonini beradi. Faqat boshqa tillardan kirgan so'zlar va o'zimizning e'tiborsizligimiz uni buzayapti. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti, tilshunoslarning tarjimonlari va boshqa millatparvar ziyolilar jonkuyarligi bilan ona tilimiz kamchilik va g'alizliklardan tozalanib, qo'llanish doirasini kengaytadi, deb umid qilamiz. Biz, o'qituvchilar ham bu savob ishga hissa qo'shishga tayyormiz.

Savlatxon SAIDOVA,
Sirg'ali tumanidagi
300-IDUMning o'zbek tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi

Munosabat

Darslikdagi xatolar chalg'ityapti

8-sinf uchun Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne'matov, Muhabbat Abduraimova, Ra'no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengliyev hammuallifligidagi 8-sinf "Ona tili" darsligining avvalgilaridan farqi shundaki, unda asosiy e'tibor grammatik qoidalarnigina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilarda ijodiy, tanqidiy fikrlash, matndan zarur ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, hayotiy muammolarni hal qilish singari kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bu esa O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishida ona tili fanidan o'qish savodxonligini oshirishda yordam beradi.

Men darslik mazmunini emas, unda uchrayotgan ayrim kam-

chiliklar yuzasidan fikrimni bayon etmoqchiman. Darslik o'quvchiga dars jarayonida va uyda mavzularni o'zlashtirish uchun muhim yordamchi sanaladi. Shu sababli undagi kamchiliklardan ko'z yumib ketolmadim. Dars jarayonida o'quvchilar savollar bilan

murojaat qilgan kamchilik va xatoliklardan ayrimlarini keltirib o'tmoqchiman.

Darslikning 39-betida uyga vazifa sifatida Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asaridan «Talab vodiysi» matni berilgan. Mashq topshirig'iga ko'ra, o'quvchilar matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning izohini topishi kerak. Vaholanki, bu mumtoz matnda o'quvchilar uchun hech qanday so'z ajratib ko'rsatilmagan. Navoiy asarlari tilini tushunmagan o'quvchi gap aynan qaysi so'z haqida ketayotganini qanday anglaydi?

29-darsda xuddi shu «Talab vodiysi» matni keltirilib, 75-mashqda yana ajratilgan so'zlarning izohini toping, deyilgan. Biroq ajratib ko'rsa-

tilgan «mash'uf» so'zining izohi matn ichida yo'q.

31-dars 41-topshiriqda ham xuddi shunday holatga duch kelamiz. «Tilshunos va qayiqchi» matni asosida 42-topshiriq shartida matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini aniqlab, lug'at daftariga ko'chirish topshirilgan. Lekin matnda birorta ajratilgan so'z yo'q.

Xuddi shunday holat 50-darsda berilgan «Behuda so'zdan sukut afzal» sarlavhali matnda ham takrorlanadi.

52-, 53-darslarda esa 96-topshiriqda berilgan «Ohanglarga yo'g'rilgan so'zlar» matni berilgan bo'lib, shu matn asosida 97-topshiriq va 117-mashq bajariladi. 98-topshiriqda esa shunday shart qo'yilgan:

matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning antonimini quyidagilar orasidan aniqlang va eslab qoling: beaql, mug'ombir, to'g'riso'z, omadsizlik, zarar, xafa bo'lmoq, diyonatli, uzun, xiyla, sadoqat, mukofotlamoq. Bu topshiriqda berilgan so'zlar matnga umuman mos emas. Biz darslikning elektron variantini ko'rib chiqsak, topshiriq uchun butunlay boshqa matn berilgan ekan. O'quvchilarning qo'liga shu matn printerdan chiqarib berib, mashqni ishlatdik. Darslikning elektron variantini topolmagan yoki u boshqa matn ekanini bilmagan o'qituvchi va o'quvchilar bu mashqni qanday bajardi ekan?

Barno ALIBOYEVA,
Do'stlik tumanidagi
10-maktabning ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi

Koronavirus pandemiyasi saboqlari

ta'lim tizimi chuqur isloh qilinishi zarur

O'zbekiston Markaziy Osiyoda 34 million aholisi bo'lgan yetakchi davlat hisoblanadi. Bizning qanchalik tog'ri yo'l tanlashimiz qo'shnilarimiz hayotida ham sezilarli o'rin tutadi. Agar respublika aholisi yiliga yarim millionga yaqin kishiga o'sishini, aholining 60 foizga yaqini yoshlar ekanini hisobga oladigan bo'lsak, ularga zamon talabidan kelib chiqib ilm berish, eng so'nggi texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladigan mutaxassisliklar bo'yicha ko'plab ish o'rinlarini yaratish — bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekanligi ayonlashadi.

Chunki xalq xo'jaligining qaysi sohasini olmag, uni jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun shunday darajadagi kadrlar kerak bo'ladi. Afsuski, bizda ular yetarli emas, ayrim sohalarida esa umuman yo'q. Yetuk kadrlar ta'lim muassasalarida tayyorlanishini hisobga oladigan bo'lsak, ko'rinib turibdiki, sohani chuqur isloh qilish kerak. Islohot islohot uchun emas, ta'lim tizimini butunlay tubdan o'zgartirishga qaratilmog'i zarur. Shu paytgacha bir necha marta islohot qilishga urinib ko'rilgan. Ammo natija biz o'ylagandek bo'lib chiqmadi. O'tgan asr boshlarida buyuk ajdodlarimiz A.Qodiriy, A.Avloniy, Fitrat, Cho'lpon va yana bir qator ilm-fan va madaniyatimizning buyuk namoyandalari ham urinib ko'rishgan. Ammo ko'ngildagidek chiqmagan. Bu galgi urinishimiz avvalgi xatolarni takrorlamasligi lozim.

Bugun har bir sohada yangi mukammal texnologiyalar shunday jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqdaki, ularning ortidan quvib yetish qiyinlashyapti. Biz amalga oshirmoqchi bo'lgan islohot ana shunday tezkor jarayonga dosh beradigan bo'lishi kerak. Sir emaski, bugun maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga bilim berish bir xil uslubda, ya'ni avtoritar uslubda olib boriladi. O'qituvchi yoki domla darslikdan o'tilajak mavzuni o'rganib kelib o'quvchilarga tushuntiradi. O'quvchilar esa uni tinglab, imkoniyatlari darajasida daftarlariga ko'chirib (konsept) o'ladi. Ertasiga shu konseptdan esda qolganlarini aytib beradilar, aksariyati o'qib beradi. Qisqasi, o'qituvchi o'zi aytib bergan ma'ruzani o'quvchi yoki talaba tilidan eshitadi. Agar o'quvchi yoki talaba o'qituvchi tomonidan o'qilgan ma'ruzaning 80-90 foizini aytib bersa bahosi 5, 60-70 foizini aytib bersa 4, 40-50 foizini aytib bersa bahosi 3, ayrimlar og'zini ochib 2 yoki 3 ta mavzu bo'yicha aytilgan to'g'ri gap uchun ham 3 qo'yib berishadi. To'g'ri-da, 2 qo'ysa fan bo'yicha o'zlashtirilmayotganlar soni ko'payib ketadi. Buning uchun javob berish kerak. Uch qo'ysa qo'zichoq ham tirik, bo'ring ham qorni to'q. Bu yerda tanganing ikkinchi tomoni haqida so'z ochayotganim yo'q. Bugungi kunda o'rta maktabni, turli kollejlarni, hatto ayrim oliy o'quv yurtlarini bitirganlar orasida ism-familiyasini to'g'ri yoza olmaydigan, savodsiz «mutaxassis kadrlar» qayerdan paydo bo'layotir. Agar muhandis-konstruktor ish jarayonida ayrim elementar xatolikka yo'l qo'ysa javobgarlikka tortiladi yoki ishdan haydaladi. Nima uchun o'qituvchi qaysidir ota-onaning ne umidlar bilan o'qitayotgan farzandini g'irt savodsiz qilib qitayotirsa unga ja jarima solinadi, na ishdan haydaladi? Buyuk allomamiz

dan, o'qituvchi o'z o'quvchisi bilan jonli muloqotda bo'lishi zarur. So'ngra har bir katta mavzu tamom bo'lgandan keyin oraliq nazoratlar, chorak tamom bo'lgandan keyin esa yana onlayn tizimda yakuniy nazorat o'tkazish talab etiladi. Har bir o'tkazilgan nazorat, har bir savolga berilgan javobga qo'yilgan baho, test natijalari shu kuniyoq elektron jurnalda qayd etilmog'i lozim. BAHOLASHDA shaffoflik, halollik, adolat bo'lmas ekan, yana avvalgidek bir joyda deysinib turaveramiz. Biz kuttgan natija esa sarob bo'lib qolaveradi. Shuning uchun barcha baholash jarayonlarini kompyuter zimmasiga yuklash zarur. Odam omili bu jarayonga aralashar ekan bu degani tanish-bilishchilik, iltimosnomalar, yuqoridan bo'ladigan qo'ng'iroqlar, poraxo'rlik, bir so'z bilan aytganda, korrupsiya davom etaveradi degani. Baholash tizimidagi yana bir nozik masala — bu maktabdan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan barcha ta'lim maskanlarida bugungi kunda turli tizimlar mavjudligi. Fikrimizcha, bu tizimda yagona usuldan foydalanish

bitiraveradi. Faqat o'rta maxsus bilim yurtlariga va ikki baho olgan fanlar o'qitilmaydigan oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini saqlab qoladi. Aslida muayyan fanga iqtidori bo'lmagan bolani har qancha o'rgatishga urinmang undan hech qanday natija chiqmaydi. Biz shu paytgacha o'zimizni ham, ota-onalarni ham, ayniqsa, eng yomon bolamni aldab keldik. Og'zini ochmasa ham 3 baho qo'yib keyingi sinfga o'tishga imkon yaratib beraverdik. Bundan buyon ushbu masxarabozlikka chek qo'yish lozim. Hech vaqt o'quvchi barcha fanlardan 2 olmaydi. Buning uchun sinfda qoldirish ham shart emas. Bitta yoki ikkita fanni o'zlashtirmay maktabni tamomlasa, osmon uzilib yerga tushmaydi. Faqat, o'quvchining imkoniyatlari biroz cheklanadi xolos.

Endigi gap barcha fanlardan yangi dasturlar bo'yicha yozilgan darsliklar haqida. O'z sohamdan kelib chiqib, ko'proq matematika haqida fikr yuritmoqchiman. Biz maktabga borgan paytda yozishni ham, o'qishni ham bilmas edik. Ammo 7 yoshli bolaga, o'sha paytdagi fidoyi o'qituvchilar 4 yil davomida ham yozish, ham o'qishni, sonlar ustida 4 arifmetik amalni bajarishni, rasm solishni va yana axloq va odobni o'rgatishga ulgurur edilar. 10 yil o'qib har qanday oliy o'quv yurtiga kirishga kuchi yetadigan bo'lib chiqardik. Hozirgi bolalar 2-3 yoshida bemalol telefon o'ynaydi. Qisqa qilib aytganda, ularning iqtidori bizning ular yoshidagi iqtidorimizdan bir necha barobar ko'p. Hamma gap bu iqtidorni to'g'ri yo'naltirishda. Olimlarning aytishicha, bola 4-6 yosh oraliqida har qanday sohada juda tez ilg'ab olish va o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lar ekan. Bu chet tili bo'ladimi, matematika, shaxmat bo'ladimi, farqi yo'q. Faqat o'qituvchi ularning iqtidorini to'g'ri baholab, qiziqishlariga qarab to'g'ri yo'naltirsa bo'lgani. Biroq bunday ishini eng iqtidorli, bilimdon, psixolog, yuqori malakali mutaxassislarigagina ishonib topshirish mumkin.

Demak, XXI asr bolalari uchun darsliklar ularning iqtidoridan kelib chiqib yozilishi lozim. "Usta — usta emas, uning asbobi usta" degan naql bor. O'qituvchi har qancha iste'dodli bo'lmasin, bilim olishda darsliklarning o'rni katta. Nazarimda darsliklar ikki turga bo'linishi kerak: osonroq va qiyinroq. Bolalarning o'zlashtirishiga qarab o'qituvchi yoki bu darslikdan bir vaqtda foydalanishi mumkin. Biz kelajak haqida gapiryapmiz. Shuning uchun, darsliklar ham ertangi kun talabidan kelib chiqib yozilishi lozim. Har bir mavzu avvalgi mavzuni boyitishga qaratilmog'i kerak. O'quvchi go'yo o'zini tepalikka chiqayotgandek his qilishi shart. Go'yo o'tkir sujjetli teleseriallardagi kabi keyingi mavzu nima haqida bo'lar ekan, degan savol uning ko'z o'ngida turmog'i lozim. Darsliklar bir necha qo'shimcha adabiyotlar bilan to'ldirilishi shart. O'quvchi o'ta iqtidorli bo'lsa birinchi yoki ikkinchi darsliklardagi mavzular bayoni uni qanoatlantirmasligi mumkin. Shunday paytda

unga qo'shimcha adabiyotlar yordamga keladi. Faraz qilaylik, o'quvchi 4-sinf dasturini yarim o'quv yilida o'zlashtirib bo'ldi. Unda nima qilish kerak, yarim yil bekor yurmaydi-ku axir. Bunday paytda barcha fanlar bo'yicha yakuniy test(imtihon) o'tkazilib, test oluvchi maxsus komissiyaning xulosasiga ko'ra beshinchi sinfga muddatidan avval o'tkazilishi kerak. Bu usul birinchi sinfdan boshlab o'rta maktabda, oliy o'quv yurtlarida, hatto, magistratura va doktoranturada ham o'llanishi dardkor. Bir so'z bilan aytganda, iqtidorli o'quvchi va talabalarni ham ma'naviy, ham moddiy RAG'BATLANTIRIB turish uchun yashil yo'lakcha barpo etish lozim. Faqat, takrorlash bo'lsa ham shuni aytamanki, bu ishlar shaffoflikka, halollikka, adolatga asoslangan, imkon boricha inson omilining aralashuvidan xoli bo'lmog'i zarur. Ikkinchi tomondan iqtidorsiz bolalarning ongida bir kun kelib ijobiy o'zgarishlar paydo bo'lib qolgudek bo'lsa ularning ham insoniylik huquqlarini poymol etmaslik uchun «qizil yo'lakcha» barpo etish kerak. Toki ular ham kun kelib peshonalari devorga urilganda, ko'zleri mohshdek ochilib qolgudek bo'lsa, jamiyat yaratgan qonunlardan norozi bo'lmasliklari kerak. Ammo bunday xizmatlar pul to'lash asosida amalga oshirilib, o'ta adolati tarzda oshkoralik bilan bajarilishi shart. Demak, yashil yo'lakcha iqtidorli bolalarni yuqoriga yetaklasa, qizil yo'lakcha esa sust o'zlashtiruvchi bolalarning vaqti kelib, aqli kirib o'z ustida ishlashlariga umid uyg'otadi. Shu yo'l bilan iqtidorli bolalarni rag'batlantirgan, ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga undagan bo'lar edik. Shu o'rinda iqtidorli bolalarni turli xil stipendiyalar, mukofotlar bilan moddiy rag'batlantirish usullaridan foydalanish yanada yaxshiroq natijalarga erishish imkonini berishini hisobdan chiqarmasligimiz lozim.

Ma'lumki, o'quv va ta'lim ishlari-ga davlat budgetining kattagina qismi sarflanadi. Bugungi kunda eng dolzarb masala budgetdan sarflanadigan har qanday xarajatlarni imkon boricha kamaytirishdir. Hozirgi, sharoitidan kelib chiqib, majburan tatbiq etilayotgan onlayn tizimi biz uchun ayni muddao bo'ldi. Shu yo'l bilan ham davlat budgetidan, ham oila budgetidan iqtisod qilishga o'rganyapmiz. Ammo amaldagi foydalanish usuli meni mutlaqo qanoatlantirmaydi. Aksariyat o'qituvchilar bu usulni vaqtinchalik tadbir deb hisoblab, unga jiddiy yondashmayotir. Bunga tezlik bilan chek qo'yish lozim.

Vijdonan aytganda, aksariyat maktablarda onlayn ta'lim xo'jako'rsinga o'tkazildi. Ya'ni qo'yilgan baholar o'quvchilar olgan bilimiga mutlaqo mos kelmadi. Shuning uchun abituriyentlarni birinchi kursga emas nolinch, ya'ni tayyorlov kurslariga qabul qilish to'g'ri ish bo'lar edi. Birinchi semestr davomida majburiy 3 ta fan — matematika, ona tili va adabiyot, tarix bo'yicha chuqur saboq olib, semestr yakunida test sinovi o'tkazilishi lozim. Test natijalariga qarab 30 foizdan yuqori ball to'plagan



abituriyentlarni imtihonsiz oliy o'quv muassasalariga qabul qilish kerak. Ikkinchi semestrda esa abituriyentlarni tanlagan sohalar bo'yicha o'qitilib semestr oxirida yana test o'tkazish lozim. Shu yo'l bilan bir yil yuqtazsak ham, kelajakda yuqori malakali mutaxassislariga ega bo'lish imkoniyatini yaratgan bo'lar edik. Albatta, bepul o'qitish davlat uchun oson bo'lmaydi. Shuning uchun agar biz o'zimizni millat deb sanaydigan bo'lsak, millatimiz kelajagini o'yab O'zbekiston milliy fondini tashkil etishimiz lozim. Bunga barcha imkoniyatni bor vatandoshlarimizni, ular qayerda yashamasin, jalb etmog'imiz shart. Shunda kelajaklar ham qanday ta'lim o'z vatandoshlarimiz uchun bepul mamlakatga aylanamiz va turli xildagi meva-sabzavot, qovun-tarvuz va h.k.lar o'rta jahan talabiga javob beradigan kuchli bilimdon mutaxassis kadrlarni «eksport» qiladigan bo'lammiz. Ammo fondan ajratiladigan har bir tiyin kinga, nimaga, qayerga ketayotganligi haqidagi ma'lumotlar o'ta shaffof bo'lmog'i lozim. Agar shunday shaffoflik bo'lsa, ishonchim komilki, O'zbekiston va uning kelajagi uchun befarq bo'lmagan mulkdor, sarmoyador, har bir vatandoshimiz millat fondiga o'z hissasini qo'shadi. Shu yo'sinda o'zimiz katta yeb-ichmasak ham, farzandlarimizni bepul o'qitib kelajakda ularning sha'niga aytiladigan rahmatlar bilan birga ularning daromadlaridan hosil bo'ladigan behisob mablag'ga ham ega bo'lammiz.

Shu o'rinda yana bir jiddiy masala. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlariga kirishda turli imtiyozlar mavjud. Agar imtiyozlar davom etaversa ko'zlagan maqsadlarimizga erisholmaymiz. Bilim — ummon. U sotilmaydi. Uni egalash uchun esa pul to'lanadi. Bilim olishda shoh-u gado teng huquqqa ega bo'lmog'i lozim. Bir tomondan o'qishni bepul qilib qo'ysak-da, ikkinchi tomondan yana kimlarga imtiyozlar berib qo'yish o'z oyog'imizga bolta urish bilan barobar.

To'g'ri, bu ishlar bir kunda bo'ladigan ishlar emas. Bosqichma-bosqich amalga oshirish dardkor. Birinchi galda maktabgacha o'quv-tarbiya dasturlari tadbirkorlikka, innovatsion qo'ylariga asoslangan bo'lishi shart. Dasturlar bolalarni ko'proq o'z ustida ishlashga, fikr yuritishga, zaruriy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishga qaratilmog'i zarur. XXI asr bolalari uchun maktablarda 11 yil o'qish shart emas deb hisoblaymiz. Bunga bir-birini takrorlaydigan fanlarni keskin qisqartirish va bolalarni rag'batlantirishning turli yo'llari bilan erishish mumkin. Ilm — ummon, uni boshidan oxirigacha egallash mumkin emas. Shuning uchun 10-12 ta fanni chala-chulpa o'zlashtirgandan ko'ra 6-7 ta fanni mukammal

o'zlashtirish to'g'ri bo'lardi. Qolganlarini qo'shimcha dars sifatida ehtiyojiga qarab o'rgansa bo'ladi. Endi raqamli iqtisodiyot haqida yana ikki og'iz so'z. Odam dunyoga keladi, so'ng yurishni, so'zlashni, o'qish va yozishni o'rgana borib har tomonlama takomillashaveradi. Bunday takomillashuvda bilimning, tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtlaridagi olinadigan ta'lim-tarbiyani bir tizim sifatida raqamlashtirish imkoniyatiga ega bo'lammiz. Masalan, farzandimiz bog'chada 4 yoshidan matematika, chet tili, arab tili, shaxmat o'rganishi boshlasa, 6 yoshdan keyin bu fanlarni yanada chuqurroq egallab o'z bilimini oshirib boraveradi. Barcha o'quv jarayonlari va olingan baholarni elektron jurnalda aks ettirib boraversak va bu ishini o'rta maktabda ham, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ham, kelajakda magistratura va doktoranturada ham davom ettirsak, insonning ilm-fan sohasida bosib o'tgan yo'li, erishgan yutuqlari haqida to'liq ma'lumotga, aniqroq qilib aytganda, ma'lumotlar BANKIGA ega bo'lammiz. Ana endi tasavvur qilib ko'ring, hozirgi onlayn o'quv tizimi ayni yangi tizimning debochasi deb qaralishi mumkin. Ta'lim-tarbiya va ilm-fan, aslini olganda, yagona yaxlit bir tizimdir. Shuning uchun ham bir tizim sifatida yagona birlashgan vazirlik tomonidan nazorat qilinishi zarur.

Shunda ham katta mablag' tejalandi, ham boshqarish osonlashadi. Fikrimizni rivojlantirib kelajakda vazirlik qoshida ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari(klasterlar)ni tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Qishloq xo'jaligi sohasida bunday klasterlarga birinchi qadamlar qo'yilishi boshlangan. Navbat xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari, masalan, mashinasozlik, pedagogika, kimyo-texnologiya, qurilish va hokazo klasterlarini yaratishni boshlash lozim. Bu klasterlar o'z vazifalariga qarab turli ko'rinishdagi shaharchalardan iborat bo'ladi. Unda bog'chadan tortib to oliy o'quv yurtlarigacha tegishli bo'lgan binolar, ishlab chiqarish korpuslari, laboratoriyalar, bir so'z bilan aytganda, mazkur sohaning poydevidan boshlab jahon standartlariga javob beradigan eng so'nggi texnologiyalar yordamida yaratiladigan mahsulotlar ishlab chiqarish bir joyda jamlangan bo'lib, bir nuqtadan turib boshqariladigan bo'ladi. Bu degani shunday ulkan mukammal mexanizm yaratiladiki, unda o'zibo'larchilikka, lo-qaydlikka, ayniqsa, korrupsiyaga hech qanday o'rin qolmaydi. Agar biz yangi O'zbekistonimizni jahon hamjamiyati orasida eng nufuzli o'rinlardan birini egallagan holda ko'rishni istasak faqat mana shu yo'ldan borishimizga to'g'ri keladi. Ikkinchi yo'l yo'q.

Nosir ZOKIROV, professor

Og'riq

Ko'plab ustozlarni qiynab kelayotgan masala haqida yana gapirmoqchiman. Yana deganimga sabab bu mavzu ko'p bor aytilgan, lekin e'tibor qaratilmayotgan muhim mavzudir.

Qishloq o'quvchilarining aybi bormi?

Olot tumanidagi 24-umumta'lim maktabimiz hudud-dagi eng kichik ta'lim muassasi bo'lib, unda bor-yo'gi 9 ta sinf mavjud. Har bir sinf 1 tadan (parallell sinf yo'q). Oldingi yillarda 1-sinfga ko'pi bilan 27-30 nafar o'quvchi qabul qilingan. Hozirga kelib oilalarimiz poytaxtga yoki boshqa hududlarga ko'chib ketishi sabab o'z-o'zidan sinflarda o'quvchi soni ham kamaydi. Ayniqsa, 7- va 9-sinflarda o'quvchilar ancha qisqardi.

Yuqori sinflarda ayni o'quvchilarning "men"i shakllanadi. Bu davrda ular har doimgidan ham ko'proq e'tibor kerak. Ularni darslarga qiziqtirish o'qituvchidan mahorat bilan birga yetarli sharoitlar ham talab qiladi. Texnologiya o'qituvchisi sifatida o'quvchilarning fan bo'yicha bilimlarini oshira olmayotganimdan yozg'iraman. Nega desiz, chunki kichkinagina maktabimizda bunga sharoit yetarli emas. Vaziyat yildan yilga tobora qiyinlashib bormoqda. Sinfda kam o'quvchi qolgan sabab texnologiya fani ham (boshqa asosiy fanlar ham) bo'linmay o'tilsin degan qaror chiqdi. Mening fanimdan 45 daqiqa davomida bitta xonada yigit va qizlar bilan bir vaqtda mashg'ul olib borish mushkul. Qizlarga pishir-kuydir, tikish-bichish mavzulari o'tilsa, o'g'il bolalarga duradgorlik, qishloq xo'jaligi va boshqalar o'rgatilishi lozim. Ammo imkonimiz chegaralanmoqda. Qishloqlarda o'quvchilar asosan kasb-hunar egallaydi. Shuning uchun ham texnologiya fanining ahamiyati yuqori.

Biz doim shahar maktablari, poytaxtdagi ta'lim maskanlariga havas qilib kelganmiz. Qaniydi, ulardagi sharoitlarning hech bo'lmaganda o'ndan biri bizda bo'lsa... O'qituvchilar ham jon kuydirib dars o'tardi, o'quvchilar ham yayrab bilim olar edi. Afsus... Bilim olaman, kelajakda yaxshi mutaxassis bo'laman, deb ko'zlari yonib turgan o'quvchilarga darslikdan boshqa yangi bilimlar bera olmaymiz. Ota-onasining kasbi taqozosi bilan shaharlarga ko'chib ketgan sobiq o'quvchilarimning kelajagini o'yab qancha xursand bo'lsam, sinfda kamayib qolayotgan, bor imkoniyatlardan ham mahrum bo'layotgan o'quvchilarimni o'yab dilim og'riydi.

— Ustoz, falon dugonamizning yangi maktabida chiroyli kiyimlar tikib, turli xil buyumlar yasarkan, alohida texnologiya xonalari bor ekan. Hatto ularda tikish mashinasi va gaz pechlari ham bor ekan.

Bu gaplar yurak-yuragimdan o'tib azob beradi. Har gal yozaman y baribir mendek oddiy qishloq o'qituvchisining dildagi gaplar kinga ham qiziq bo'lardi deyman. Lekin shunchaki havasga gapirayman. Yuragim og'rganidan, o'quvchilarga chin dildan achinib gapiraman.

Hozir zamon o'zgardi, qarashlar o'zgardi. Ta'limdagi barcha yangiliklar va islohotlardan xabarimiz bor. Omma-viy axborot vositalarida so'nggi o'zgarishlar aytilyotgan chiqishlar, yangilanayotgan ta'lim deya bong urishlarga ko'p ham e'tibor qilmayman. Noshukurlikka yo'ymang. O'qituvchilar hayotidagi o'zgarishlardan quvonaman. O'z o'quvchilar-chi?! Yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga chiqdi. Lekin hamma yangiliklar faqat poytaxt va shaharlarda qolib ketmoqda. Qishloqda tug'ilgan bolalarning aybi bormi? Ular shahar maktablaridagi kabi sharoitlarga arzimaydimi? Yoshlar bizning kelajagimiz, deya qayta-qayta gapiramiz. Kelajak egalari yan xush natija kutishdan oldin shunga munosib imkoniyat yaratib berishimiz kerak emasmi?

Nargiza BEKNAZAROVA, Olot tumanidagi 24-maktabning texnologiya fani o'qituvchisi

Tarix fanidan test savollari

№	Savol	A	B	C	D
1.	Turkiston Muxtoriyatining markazi etib belgilangan shaharni toping.	Qo'qon	Toshkent	Samarqand	Buxoro
2.	1920-yilda tugatilgan davlatni toping.	Buxoro amirligi	Turkiston Muxtoriyati	Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi	O'zbekiston SSR
3.	1920-yilda tugatilgan davlatni toping.	Xiva xonligi	Turkiston Muxtoriyati	Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi	O'zbekiston SSR
4.	O'zbekiston SSR poytaxti bo'lgan shaharni toping.	Samarqand	Qo'qon	Xiva	Jizzax
5.	1917-yilda quyidagi qaysi shaharda bo'lib o'tgan Butunturkiston o'lka musulmonlarining faqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati tuzilganligi e'lon qilingan?	Qo'qon	Toshkent	Samarqand	Buxoro
6.	Nechanchi yilda arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o'tilgan?	1929-yilda	1940-yilda	1917-yilda	1936-yilda
7.	Quyidagi qaysi hukmdor davridan boshlab Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi?	Ubaydullaxon	Muhammad Shayboniyxon	Abdullaxon II	Ko'chukchixon
8.	Xiva xonligiga qaysi sulola asos solgan?	shayboniylar	qo'ng'irotlar	mang'itlar	minglar
9.	"Shajarayi turk" asari muallifini toping.	Abulg'oziyxon	Muhammad Solih	Muhammad Shayboniyxon	Zahiriddin Muhammad Bobur
10.	1740-yilda Xiva va Buxoro xonligini bosib olgan Eron shohini toping.	Nodirshoh	Ismoil Safaviy	Abbos I	Taxmasp II
11.	III asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti quyidagi qaysi shahar xarobasining o'rnida bo'lgan?	Tuproqqal'a	Quva	Varaxsha	Afrosiyob
12.	Farg'ona hukmdorlari ilk o'rta asrlarda qanday nomlangan?	Ixshid	Yabg'u	Xoqon	Sho(shoh)
13.	O'rta Osiyo aholisining asosiy qismi VI-VII asrlarda qaysi dinga e'tiqod qilgan?	zardushtiylik	moniylik	nasroniylik	buddaviylik
14.	VIII asr boshlarida arablarning Movarounnahrda harbiy yurishlariga boshchilik qilgan shaxsni toping.	Qutayba ibn Muslim	Ubaydulloh ibn Ziyod	Muoviya I	Rofe ibn Lays
15.	Sharqda Arastudan (Aristotel) keyingi yirik mutafakkir — "Muallim us-soniy" nomi bilan shuhrat topgan allomani toping.	Abu Nasr Forobiy	Abu Rayhon Beruniy	Abu Ali ibn Sino	Ahmad al-Farg'oniy
16.	O'rta Osiyoga bostirib kelingan yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashga kim boshchilik qilgan?	Spitaman	Frada	Shiroq	To'maris
17.	O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari nechta satraplikka bo'lingan?	3 ta	4 ta	5 ta	2 ta
18.	Quyidagi qaysi mahalliy hokimlik hukmdorlari dastlab, "malikshoh", keyinchalik "yabg'u" nomi bilan atalgan?	Tohariston	Eloq	Farg'ona	Sug'd
19.	1892-yilda tarixda "Vabo isyoni" (yoki "Toshotar" voqesi) deb nom olgan qo'zg'olon qayerda bo'lib o'tgan?	Toshkentda	Andijonda	Buxoroda	Qo'qonda

№	Savol	A	B	C	D
20.	Quyidagilardan 1865-yilda tashkil etilgan Orenburg general-gubernatorligi tarkibidagi Turkiston viloyati gubernatori bo'lgan shaxsni toping.	M.Chernyayev	K.P. fon Kaufman	M.Skobelev	V.Perovskiy
21.	Qaysi hukmdor davrida Xivada "xon navkarlari" deb atalgan muntazam qo'shin tuzilgan?	Muhammad Rahimxon I	Muhammad Amin inoq	Oloqulixon	Eltuzar
22.	Mil.avv. VII-VI asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yunon yozma manbalarida bu hudud nima deb nomlangan?	So'g'diyona	Xorasmiya	Baqtriana	Davan
23.	Qaysi daryo qadimda Oks deb atalgan?	Amudaryo	Sirdaryo	Zarafshon	Qashqadaryo
24.	Shayboniylar davrida davlat muassasalari qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq nima deb atalgan?	ixrojot	xiroj	zakot	jizya
25.	XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi lavozim egasi shug'ullangan?	mutavalli	mehtar	mushrif	shayxulislom
26.	Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan qaysi shaharda har ikki yilda bir marotaba "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali o'tkazilib kelinmoqda?	Samarqand	Buxoro	Xiva	Qo'qon
27.	O'zbek adabiyotida pociyaga masalini birinchi bo'lib mustaqil janr sifatida kiritgan ijodkorni toping.	Gulxaniy	Maxmur	Muqimiy	Turdi Farog'iy
28.	Nechanchi yilda Toshkentda Xotira va qadrlash maydoni barpo etilgan?	1999-yil	2000-yil	2001-yil	1995-yil
29.	2000-yildan boshlab yurtimizda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida har 3 yilda o'tkazila boshlagan sport musobaqalari qanday nomlangan?	"Umid nihollari"	"Barkamol avlod"	"Universiada"	"Istiqlol yulduzlari"
30.	Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning qaysi shahrida metallurgiya zavodi bunyod etilgan?	Navoiy	Qo'qon	Buxoro	Bekobod

(Davomi kelgusi sonlarda.)

Ingliz tili fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Read the text and answer the questions according to it.
Ice cream has been available for thousands of years. It was nothing like modern ice cream in its very early history. In fact, the early ice cream was only snow mixed with honey and fruit. As time went on, ice cream became more like it is today. With the help of new technologies such as electricity, the freezer and the fridge, ice cream became much easier to make. In 1904, an ice cream salesman at the World's Fair used a waffle to hold ice cream from running out. Thus, the ice cream waffle was invented. Then after a year, new ice cream products like the sundae and ice cream soda were invented. Today people know a lot of ice cream flavours.

№	Savol	A	B	C	D
90.	According to the passage, which of the following didn't include in the early ice cream?	snow	honey	a fruit	a waffle
91.	According to the passage, what exactly happened in 1905?	The ice cream waffles were introduced.	New kinds of technologies were invented.	The ice cream was mixed with only snow and honey.	The new ice cream products were introduced.
92.	According to the passage, how did ice cream become easier to make?	People found a lot of ice in mountains.	The new technologies appeared.	People made ice cream by hand.	The ice cream waffle was invented.
93.	All of the statements are TRUE about ice cream, EXCEPT ...	The early and modern ice cream are the same	People have a lot of ice cream tastes now	New technologies helped to make ice cream	Waffles helped to hold ice cream from running out

Read the text and answer the questions according to it.

For the first time ever, plants from the Earth are being grown on the Moon. The China National Space Administration showed photos of some plants growing. The administration says the cotton plants are among several plants that are growing well. Other plants growing on the moon are potatoes, rock cress and rapeseed. These plants are part of a project on the far side of the moon. The project is called "a moon surface". Project leader Liu Hanlong says the cotton seeds were the first to be grown. He said these plants were chosen because they were small, strong and could grow in difficult conditions. Learning about these plants growing in a low-gravity environment would help scientists to grow plants on a space base in the future.

№	Savol	A	B	C	D
94.	According to the passage, what seeds were the first to grow out on the Moon?	rapeseeds	potatoes seeds	cress seeds	cotton seeds
95.	According to the passage, where are the plants growing?	on the Earth	in China	on the Moon	in the mountains
96.	According to the passage, why were the cotton seeds chosen for this mission?	They were strong.	They were cheap.	They were expensive.	They were light.
97.	According to the passage, where do the scientists want to grow plants in the future?	in the desert	on the moon	in other planets	on a space station

Biologiya fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
40.	Odamda murtak varaqasining ektodermasidan rivojlanuvchi tuzilmalarni aniqlang. 1) uzunchoq miya; 2) ichak epiteliyasi; 3) terining epidermis qavati; 4) o'mrov osti muskuli; 5) kolbachasimon va tayuqchasiimon retseptorlar; 6) o'pka arteriyasi; 7) o'ng va chap o'pka; 8) jabra.	1, 3	2, 4	6, 7	5, 8
41.	Gulkoschabarglari qo'shilmagan (a) va qo'shilgan (b) o'simliklarni aniqlang.	a — karam, rediska; b — qovun, kanop	a — oshqovoq, karam; b — bodring, olga sorbariyasi	a — isirg'ao't, achambiti; b — shaftoli, itqovun	a — tarvuz, tubulg'i; b — oloy hiyoli, olcha
42.	Piyozdoshlarga xos xususiyatlarini aniqlang.	barg yaprog'i parallel yoki yoysimon tomirlangan, gulqo'rg'oni oddiy bo'ladi	unayotgan o'simlikda urug' pallabargi yer ostida qoladi, gulqo'rg'oni murakkab bo'ladi	gulqo'rg'oni oddiy, o'q ildizi rivojlangan bo'ladi	asosiy ildiz tezda nobud bo'ladi, unayotgan o'simlik tuproqdan ikkita urug' pallabarg bilan chiqadi
43.	Retsektiv holda irsiylanadigan belgini aniqlang.	barmoqlar sonining normal bo'lishi	qonning normal ivishi	sochning to'g'ri bo'lmashligi	terida melanin pigmentining normal sintezlanishi
44.	Jinsiy X-xromosomaga birikkan retsektiv gen kasalligini aniqlang.	gemofiliya	Daun sindromi	Shershevkii-Terner sindromi	Klaynfelter sindromi
45.	Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang. G'o'za avlodida 52 xromosomalarning paydo bo'lishi ... hisoblanadi.	genom mutatsiyasi	xromosoma mutatsiyasi	gen mutatsiyasi	nuqtali mutatsiya
46.	Chuchuk suvda uchraydigan suvo't (a), prokariot organizm (b), virus (c) berilgan javobni aniqlang.	a — xlorella; b — kuydingi qo'zg'atuvchisi; c — herpes	a — xara; b — qoqshol qo'zg'atuvchisi; c — vertitsill	a — batsidiya; b — o'lat qo'zg'atuvchisi; c — penitsill	a — yapon laminariyasi; b — sil qo'zg'atuvchisi; c — batsidiya
47.	Prokariot (a) va parazit eukariot organizm (b) berilgan javobni aniqlang.	a — xrokokk; b — exinokokk	a — ossillatoriya; b — kladoniya	a — nostok; b — kladofora	a — pnevmokokk; b — nostok
48.	To'g'ri fikrlarni aniqlang. 1) alohidalanish — bir turga mansub organizmlarning erkin chatishuvini cheklashga o'rin beradi; 2) aromorfoz — sinf, tip doirasida yuzaga keladigan tuzilishning yuksalishi bilan bog'liq o'zgarishi; 3) makroevolutsiya — kenja tur va turlarning paydo bo'lishi; 4) konvergensiya — sistematik jihatdan uzoq guruhlar bir xil moslanishlarga ega bo'lishi; 5) regress — parazit hayot kechirishga o'tish tufayli organizmlar tuzilishining soddalashuvi.	1, 4	2, 3	1, 3	4, 5
49.	Quyida berilgan misollar turning qaysi mezonlarini ifodalaydi? 1) gavia Hindiston yarimorolida tarqalgan; 2) yomg'ir chuvalchangi tuxumlarini pilla ichiga qo'yadi; 3) suvarakning kariotipida 46ta autosoma bor; 4) sadaforning qanotlari tangachalar bilan qoplangan.	1 — geografik; 2 — fiziologik; 3 — genetik; 4 — morfologik	1 — morfologik; 2 — fiziologik; 3 — genetik; 4 — morfologik	1 — morfologik; 2 — ekologik; 3 — fiziologik; 4 — geografik	1 — geografik; 2 — biokimyoviy; 3 — morfologik; 4 — morfologik
50.	Quyidagilardan evlutsiyani isbotlashda fanlar dalillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. 1) kitning dumg'aza suyaklari rudiment organ; 2) bo'g'imoyoqlarning ontogenezi zigotadan boshlanadi; 3) umurtqalilar ontogenezi blastula davri bo'ladi; 4) kaltakesak embrionida jabra yoriqlari bo'ladi; 5) silur davrida tuproq quyuqligi o'simliklari — psilofitlarning tarqalishi imkon bergan; 6) shirinmiya ildizpoyasi va qovoqning jingaligi gomologik organ.	2, 4 — embriologiya; 1, 6 — solishtirma anatomiya	1, 4 — solishtirma anatomiya; 2, 3 — embriologiya	2, 3 — paleontologiya; 1, 3 — solishtirma anatomiya	2, 4 — embriologiya; 5, 6 — paleontologiya
51.	Ichagi kloakaga ochiladigan hayvonlar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.	qanotsiz kivi, povituxa qurbagasi	los, kvaksha	qunduz, susvar	kapachi qushi, ayiq
52.	Olxo'ri o'simligining changdonida 80 ta diploid to'plamli hujayra gametalar hosil qilishda ishtirok etdi. Agar o'simlikda 128 ta urug' hosil bo'lgan bo'lsa, hosil bo'lgan spermialarning necha foizi markaziy hujayraning urug'lanishida qatnashgan?	20	35	25	60
53.	Odamda ayirish sistemasi organlari ishini boshqaruvchi tizimlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. a) antidiuretik gormon; b) tiroksin; c) simpatik nerv sistemasi; d) parasimpatik nerv sistemasi. 1) siydik qopi muskullarini bo'shashtiradi; 2) siydik qopi muskullarini qisqartiradi; 3) siydik yig'ilishiga sharoit yaratadi; 4) kalvasimon kanalchalarga ta'sir ko'rsatadi; 5) reabsorbsiyani susaytiradi; 6) reabsorbsiyani kuchaytiradi; 7) siydik ajralishni ko'paytiradi; 8) siydik ajralishni kamaytiradi.	a — 6; b — 5; c — 1, 8; d — 2, 7	a — 3, 5; b — 6; c — 1, 8; d — 2, 7	a — 5; b — 3, 6; c — 4, 8; d — 2, 7	a — 6; b — 5; c — 2, 7; d — 1, 8
54.	O'simliklarning anteridiysi (a) va arxegoniysi (b) uchun mos keluvchi ma'lumotlar berilgan javobni aniqlang.	a — dala qirg'bo'g'ida spermatozoid hosil qiladi; b — dala qirg'bo'g'ining urg'ochlik o'simtasida yetiladi	a — yo'sinda tuxum hujayra hosil qiladi; b — zurhasochning gametofitida rivojlanadi	a — archaning urug'kurtagida hosil bo'ladi; b — qarag'ayda erkaklik jinsiy a'zosi hisoblanadi	a — sharq saurida tuxum hujayra hosil qiladi; b — dala qirg'bo'g'ining erkaklik o'simtasida yetiladi

№	Savol	A	B	C	D
55.	Umurtqasiz hayvonlar evlutsiyasida aromorfozlarning paydo bo'lish ketma-ketligini aniqlang. 1) gemofrodit jinsiy organing paydo bo'lishi; 2) ikki qavatli gastrulyatsiya bosqichining sodir bo'lishi; 3) nerv sistemada nerv tugunlari va qorin nerv zanjirining paydo bo'lishi; 4) bir hujayralilarning paydo bo'lishi; 5) nafas olish sistemasida o'pkaning paydo bo'lishi.	4, 2, 5, 1, 3	4, 2, 1, 3, 5	5, 4, 1, 2, 3	5, 2, 4, 3, 1
56.	Parpi (a), chirituvchi bakteriya (b), sariq ilon (c) uchun mos tushunchalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.	a — produtsent organizm; b — redutsent organizm; c — konsument organizm	a — avtotrof organizm; b — produtsent organizm; c — konsument	a — geterotrof organizm; b — konsument organizm; c — avtotrof organizm	a — redutsent organizm; b — geterotrof organizm; c — konsument
57.	Antropogen omil ta'sirini aniqlang.	bug'doyning yangi navini yaratish	o'simlikni chigirtkalar tomonidan yeb bitirilishi	sovuqda daraxt barglarining to'kilishi	saksoval o'simligining qurg'ochlik sharoitga moslashish natijasida barglarining qipqisimon bo'lishi
58.	Antropogen omil ta'sirini aniqlang.	g'o'zaning viltga chidamliligi yoni yangi navini yaratish	ninachilarni qon so'ruvchi hasharotlar bilan oziqlanishi	hasva qandalasini ekinlar doni va bargini so'rib oziqlanishi	kanalarning qon so'rish natijasida hayvonlarni o'zib ketishi
59.	Qaldirg'ochning qaysi xususiyatlarini turning ekologik (a), morfologik (b) va fiziologik (c) mezonlarini ifodalaydi? 1) tanasining orqasi ko'kimir-qora; 2) ayvon pestog'ida qurilgan uyada yashaydi; 3) urug'ochlari uyaga 4-6 ta tuxum qo'yadi; 4) qanotlari ingichka va uzun; 5) bolalarini hasharotlar bilan oziqlantiradi; 6) uchayotganda o'pka va havo pufaklari orqali nafas oladi.	a — 5; b — 1; c — 6	a — 4; b — 3; c — 1	a — 1; b — 4; c — 2	a — 3; b — 2; c — 5
60.	Evlutsiya dalillariga mos keladigan misollar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan? 1) kitning dumg'aza suyagi-rudiment organ; 2) sut emizuvchilar embrionida jabra yoriqlari bo'ladi; 3) ko'p hujayralilarda ontogenezi zigotadan boshlanadi; 4) qush va kapalakning qanotlari-analogik organlar; 5) umurtqalilar ontogenezi blastula davri bo'ladi.	embriologiya — 2, 3; solishtirma anatomiya — 1, 4	solishtirma anatomiya — 2, 4; embriologiya — 3, 5	molekular biologiya — 3, 5; solishtirma anatomiya — 1, 2	embriologiya — 1, 2; paleontologiya — 1, 2
61.	Organizmlar evlutsiyasida idioadaptatsiya (a), umumiy degeneratsiya (b) yo'nalishlari uchun mos misollar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang. 1) qayrag'och mevasining qanotchalari yordamida tarqalishi; 2) sudralib yuruvchilar sinfi vakillarining kelib chiqishi; 3) voyaga yetgan assidiyada xorda va nerv sistemasi asosiy qismini yo'qolishi; 4) zarpechakda ildiz va bargning bo'lmashligi; 5) ildam kaltakesakning qum rangida bo'lishi.	a — 1; b — 3	a — 2; b — 4	a — 1; b — 5	a — 2; b — 3
62.	Qizil korall polipining jinsiy (a) va jinsiz (b) ko'payish ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang. 1) zigota; 2) kurtaklarning paydo bo'lishi; 3) lichinka; 4) ona organizmdan ajralishi; 5) jinsiy hujayralarning yetilishi; 6) paypaslagichlar, og'iz teshigi paydo bo'lishi; 7) yosh polip; 8) urug'lanishning sodir bo'lishi.	a — 5, 8, 1; b — 2, 6, 7	a — 3, 5, 8, 1, 7; b — 2, 6, 4, 7	a — 2, 5, 8, 1; b — 2, 7, 6	a — 5, 8, 1, 7; b — 2, 6, 3, 7
63.	Bir yillik o't o'simliklarni aniqlang.	rayhon, tarvuz	beda, yerbag'ir tugmachag'ul	qoq'o't, zub-turum	kovrak, yeryong'oq
64.	Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang. Jayron ... hayvon.	kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli	kavsh qaytarilmaydigan juft tuyoqli	toq tuyoqli	oshqozoni ikki bo'lmalı
65.	Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang. Ohu ... hayvon.	kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli	kavsh qaytarilmaydigan juft tuyoqli	toq tuyoqli	oshqozoni ikki bo'lmalı
66.	To'g'ri fikrlarni aniqlang. a) Avstraliya biogeografik viloyatida skuns uchraydi; b) Habashiston biogeografik viloyatida martishka uchraydi; c) Neotropik biogeografik viloyatida pampas mushugi uchraydi; d) Nearktik biogeografik viloyatida gibbon uchraydi. (Tabiiy holda tarqalgan.)	b, c	a, b	b, d	a, c
67.	Saprofit (a), parazit (b), fototrof (c) eukariotlarni aniqlang.	a — oq po'panak; b — bo'rtma nematoda; c — alo	a — qoqshol qo'zg'atuvchisi; b — askarida; c — zangori sachratqi	a — ko'kyo'tal qo'zg'atuvchisi; b — bo'rtma nematoda; c — tirnoqgul	a — qo'ziqorin; b — bo'tako'z; c — zarpechak
68.	To'g'ri fikrlar berilgan javobni aniqlang. 1) bakteriya hujayrasining bakteriofaglar tomonidan nobud qilinishi transformatsiya deyiladi; 2) quyon zigotasiga o'sish gormoni geni kiritilib, transgen quyon olingan; 3) transpozaza — zaharli toksin parchalovchi ferment sintezlovchi genetik tuzilma; 4) ligaza, restriktaza, transpozaza oqsil tabiatiga ega fermentlardir.	2, 4	1, 4	1, 2	3, 4

(Davomi keyingi sonlarda.)

27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

Radiokarnaylar yana ishga tushdi

Yaqinda "Farhodning jasorati" nomli kino ko'rdim. Undagi bir tasvir juda ta'sirlantirdi. Jang maydonida askarlarning ruhiyatini ko'tarish uchun radiokarnaylarda konsert dasturi qo'yib berildi. O'zbek xonandasining ovozi yangraganda bomba tushib radiokarnayni o'chirib qo'ydi. Xandaq(okop)da yotgan askar o'q yomg'iriga qaramasdan, radiokarnayning simlarini uladi va qo'shiqni oxirigacha tingladi. Bu ehtimol o'yab topilgan tasvirdir. Ammo radio urush yillari odamlarning, xalqning asosiy axborot olish manbayi bo'lgani, askarlarga ruhiy quvvat ulashganini yodga soldi.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, karantin sabab radiokarnaylar qayta ishga tushdi. Mahalla, ko'p qavatli uylar atrofida oqohlikka chorlovchi, tozalik va sanitariya qoidalriga amal qilishga undovchi chaqiriqlar radiokarnaylar orqali e'lon qilindi.

Radio insoniyat hayotiga kirib kelganiga 125 yil to'libdi. 1895-yili rus fizigi va elektrotexnigi Aleksandr Popov Sankt-Peterburgda radioning dastlabki variantini ommaga namoyish etgan edi. O'tgan asrning o'ttizinchi yillari yurtimizda yuz bergan mo'jiza — radio, zavod va fabrikalarning ochiq maydonlariga o'rnatilgan katta radiokarnaylar orqali mamlakatimiz va olamda bo'layotgan yangiliklar bilan odamlarni tanishtira boshladi. Tez orada bu radiokarnaylar mahalla guzarlaridagi maydonlardan joy oldi, so'ngra yangilikka o'ch fuqarolarning xonadonlariga ham kirib borib, aholini axborot va diltortar qo'shiqlar bilan xushnud etdi. Tez orada radio nafaqat axborot uzatish manbayi, balki tinglovchilar qalbini to'liqlantiradigan, ularning ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladigan badiiy obrazlar yaratish tendensiyasini rivojlantiruvchi ijodiy maskanga aylandi. Keyinchalik esa, radiomuxlislar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan xat orqali murojaat qilishdi. Sevgan qo'shiqchilari, shoir, yozuvchilariga dil izhorlarini xat orqali bayon etdilar. Radio xalq bilan muloqot qilishning jonli vositasiga aylandi.

Ayniqsa, dunyoni larzaga solgan Ikkinchi jahon urushi davrida radio front orti va jang maydonlarida odamlar uchun asosiy axborot olish manbayiga aylandi. O'sha yillarda O'zbekiston radiosidan havo to'liqlariga uzatilgan G'afur G'ulomning "Sen yetim emasan", "Men yahudiyman" she'riy hayqiriqlari, Komil Yashinning "General Rahimov" pyesasidagi Shukur Burhonning radio orqali o'qigan Rahimov monolog, Qobilqori Siddiqov ijrosidagi "Yo'l bo'lsin" qo'shig'i badiiy barkamol talqindagi radioobrazlar qatoridan o'rindi.

Otashnafas suxandon Qodir Maxsumov 1945-yilning 9-may kuni o'qigan g'alaba haqidagi e'lon yuz minglab kishilarning ko'zlaridan quvonch yoshlarini oqizgan. Sababi, bosma nashrlarda katta harflarda bosilgan ayni shu e'lon axborot sifatida qabul qilingan bo'lsa, Qodir Maxsumov ijrosidagi jonli ijro g'oliblik madhiyasi, bahodir xalqning vakili g'olib askarning tantanali na'rsi — to'laqonli badiiy obraz bo'lib yangra-

gan. Bu ovoz xalqni g'alabaga, yaxshiliklarga, tinchlik kunlari kelishiga umidlantirgan.


O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nasiba Ibrohimova shunday xotirlaydi: "Toshkent radiosida boshlovchilik qilardik. O'zimizning ovozimizni radio to'liqlarida tinglab hayratlanardik. Bir kuni rejissyorimiz bizga "Sizlar ishtirokingizda teleoyiha tayyorlaymiz", deb qoldi. Mana shu radiostudiyada hammamizni jamlab, radio uchun qiladigan savol-javob, suhbatlar bo'ldi. Kameralar o'rnatilganini ko'rib, rosa hayajonlandik. Ekran qayerda ekan, deb rosa izlaganmiz. Biz hozir gapirganimizni birdan ekranda ko'rsatadi, deb o'ylagandik. Yo'q, bizni lentalarda yozib olishgan, keyin uni montaj qilib, tayyor ko'rsatuv holiga keltirib, keyin efigra uzatishgan ekan. Mana shunday qilib, ilk ko'rsatuvlar radiostudiyalarda, xuddi radiodasturlar kabi "Toshkentdan gapiramiz" ochish so'zlari bilan tayyorlangan.

Garchi internet, televideniye rivojlangan bo'lsa-da, radioning ommaviy axborot vositasi sifatida o'rni, ahamiyati yo'qolgani yo'q. Bugungi kunda mamlakatimizda 37 ta radiokanal ishlab turibdi. Balki radioning muxlislari kamayib borayotgandir, lekin u hamon eng tezkor, eng arzon axborot vositasi sifatida katta imkoniyatga ega.

"Yoshlar", "O'zbekiston 24", "Mahalla" radiokanalari misolida radio faoliyatiga bir nazar tashlaymiz.

Ayni karantin kunlari "Yoshlar" radiokanalida "Zeriktirmaymiz" dasturi boshlandi. Unda boshlovchilar uyda turib, telefon orqali dasturni olib borishmoqda. Ikkinchi telefonda esa muxlislar efigra ulanadi. Dushanbadan jumaga qadar har kuni ikki soat davom etayotgan dasturda radiomuxlislar karantin davrida nima qilayotgani va mana shu sinovli kunlarda xalqqa berilayotgan yordam, shukronalik tuyg'ularini ifoda etishmoqda. Shuningdek, aholi pandemiyasi sabab uyda qoldi. Tabiiyki, tug'ilgan kunlarini ham yaqinlarisiz o'tkazishga majbur. "Yoshlar" radiokanali orqali efigra uzatilyotgan "Bu sizga" tabrik dasturi har kuni soat 19:00 dan 21:00 gacha muxlislar tabrik va tilaklari asosida tayyorlab kelinmoqda.

Shuningdek, "Yoshlar" radiokanalida "Navbat sizga" radio'yini berilmoqda. Unda muxlisning qo'shiq ijro etish qobiliyati namoyish etiladi. "Kitobxon-



lik" intellektual o'yinida esa turli badiiy asarlar muxlislar ishtirokida muhokama qilinadi.

"O'zbekiston 24" radiokanali asosan informatsion kanal bo'lib, barcha yangiliklarni berib bormoqda. Karantin davrida bu kanalda "Uydamisiz", "Saxovat va ko'mak", "Imkoniyat va mas'uliyat" kabi yangi dasturlar ochildi. Unda asosan uyda qolib, vaqtini mazmunli o'tkazayotgan yurtdoshlarimiz, sinovli kunlarda xalqqa saxovat qilishga oshiqayotgan kishilar va favqulodda holat yuz bergan hududlarda aholiga qanday yordam berilgani haqida ma'lumotlar berib borilmoqda. Shuningdek, "Muhim mavzu" ochiq muloqot dasturida shu kunning eng dolzarb mavzusi, pandemiya kunlari nimalarga amal qilish haqida sohaning yetuk mutaxassislari ishtirokida muloqotlar tashkil etildi. Radiomuxlislar ham o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob olishdi. Bu muloqotlar televideniye orqali ham namoyish etilmoqda. "O'zbekiston 24" radiokanalida muntazam ravishda "Psixolog maslahati" dasturi ham to'g'ridan to'g'ri efigra uzatilmoqda. Bunda yurtdoshlarimiz o'zlari uchun zarur bo'lgan masalada turli savollar berib, mutaxassislardan maslahat olishmoqda. Bu dastur ham televideniye orqali namoyish etilyapti.

Juda ko'plab yurtdoshlarimiz "Mahalla" radiokanalining ashaddiy muxlisleri sanaladilar. Bu kanal ham aynan karantin sabab turli dasturlar tashkil etdi.

"Mahalla" radiokanali karantin dastlabki kunidan boshlab "O'zbekiston 24" radiokanali berayotgan axborot dasturlarini ulab qo'ydi. Shuningdek, "Bevosita muloqot vaqti" dasturlari tashkil etildi. Unda kunning eng dolzarb mavzusi, pandemiya davrida nimalarga amal qilish kerak, qanday choralar ko'rilayotgani haqida soha mutaxassislari bilan suhbatlar tashkil etildi. Bu muloqotlarda muxlislarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan aniq javob olindi. Shuningdek, musiqiy-ko'ngilochar dasturlarda uyda o'tirgan san'at, adabiyot, kino, sport, ta'lim sohasi vakillari bilan suhbatlar tashkil etildi. "Shukrona", "Ma'rifat chiroqlari" dasturlarida esa xalqimizning ko'ngil kechinmalari, Ramazon oyida qilgan duoyu amallari haqida lavhalar hamda diniy ulamolarning suhbatlari berib borildi. Shuningdek, "Mahalla" radiokanalida har kuni "Sog'inchli salom" loyihasi

berib boriladi. Unda bir-biridan uzoqda bo'lgan yaqinlar, jigarlar, qadrdonlar o'z dil izhorlarini bildiradilar. Tavallud ayyomlari bilan tabriklaydilar.

Karantin kunlari "O'zbekiston 24" radiokanali ijodkorlari bevosita ishda bo'lishdi. "Yoshlar" va "Mahalla" radiokanalari ijodkorlari asosan uyda o'tirib, onlayn ishladilar. Bu davrda mas'uliyat ko'proq rejissyorlarning zimmasiga tushdi. Radiokanalarda faoliyat olib borayotgan barcha rejissyorlar matonat bilan ishladi. Chunki, efigra turib, ham boshlovchi, ham mutaxassis va muxlislarini o'z o'rnida telefonda ulash juda mashaqqatli jarayon. Bu jarayonda faol ishlagan radiorejissyorlarning mehnati chindan tahsinga loyiq.

Hozir hamma axborotni internet orqali oladi, desiz. Unutmang, 35 million aholimiz bor. Ularning bor-yo'g'i ikki foizigina kommunikatsion axborot olish imkoniyatiga ega. Bu juda kam ko'rsatkich. Aholining asosiy qismi kommunikatsiyalardan olinib bo'lgan hududlarda istiqomat qiladi. Radio esa qayurda bo'lmang, qalay, yoningizda olib, ko'p ham e'tibor talab qilmasdan, ishlash turib ham eshitish mumkin bo'lgan dasturdor.

"Har gulning o'z ifori bor" deganlaridek, televideniye kino san'atini va teatrni yo'q qila olmaganidek, radioning ham o'rmini egallay olmaydi. Radio mustaqil bir ommaviy axborot vositasi sifatida o'z foyiatini davom ettiradi. Radioda tarix bilan bugunni bog'lab turuvchi "Oltin fond" bor. Bu fond orqali radio tashkil bo'lgandan boshlab shu kungacha tayyorlangan dasturlar, radiospetaktillar va noyob ovozlari keyingi avlodlarga yetkazib beriladi.

Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir, deyдилar. Ehtimol, mana shunday favqulodda holat paytlari yana radiokarnaylarni ishga tushirish, korxonalar, tashkilot, mahalla guzarlari va ko'p qavatli uylarda, xonadonlarda radio o'rnatib, aholini tezkor, arzon axborot bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish kerakdir. Eng tezkor axborot olish manbayi bo'lgan internet esa, hamma joyga ham yetib bormayapti hozircha. Televizion esa faqat elektr bo'lganda ishlaydi.

(Maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, radiorejissyor Javlon Toshxo'jayevning xotiralaridan foydalanildi.)

Uljamo XONNAYEVA,
"Oltin qalam" milliy mukofoti
sovrindori

Umarov Lutfillo Murodillovichning 13.00.07 — Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha "Elektron axborot ta'lim resurslari asosida pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish boshqaruvi takomillashtirish (Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi doirasida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/30.12.2019.Ped.68.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 27-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-52, 246-06-69; e-mail: avloniy@xtv.uz

Ruzikulova Nigora Shuxratovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.T/PED.99.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 29-iyun kuni soat 09:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Do'rmon yo'li ko'chasi, 34-uy.
Tel/faks: (71) 262-70-91, 262-96-63; e-mail: info@gubkin.uz

Saidova Mohinur Jonpo'latovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.T/PED.99.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 29-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Do'rmon yo'li ko'chasi, 34-uy.
Tel/faks: (71) 262-70-91, 262-96-63; e-mail: info@gubkin.uz

Yusupov Muxtorjon Tojiboevichning 02.00.16 — Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari ixtisosligi bo'yicha "Uzumni quritish texnologik jarayonini modellashtirish va optimallashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc. 27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 27-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 32-uy.
Tel/faks: (71) 244-79-20, 244-79-17; e-mail: tashpmi@gmail.com

Sobirova Mavjuda Ruziyevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "7-9-sinflarda geometriya o'qitishda o'quvchi o'quv-judiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D. 03/30.12.2019.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 26-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Sabirova Charosxon Atamamatovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak o'qituvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D. 03/30.12.2019.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 26-iyun kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Avliyoqulov Jamshed Sadulloevichning 05.02.01 — Mashinasozlikda materialshunoslik. Quyumachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi (materialshunoslik va metallurgiya yo'nalishlari, texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Avtomobil agregatlarini tayyorlash va qayta tiklash uchun polimer matritsa asosli kompozitsion materiallarni yaratish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Fan va taraqqiyot" DUK huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K/T.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 27-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, 7-"A" uy.
Tel/faks: (71) 246-39-28, 227-12-73; e-mail: fan va taraqqiyot@mail.ru

Sanayeva Surayyo Bobonazarovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.01.2020. Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 27-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Irisbayeva Manzura Nurmatovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Ta'lim jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 27-iyun kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va Zoom dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Qurilish boshladingizmi? Sizga yordam beramiz!

Yoz — qurilish ishlarini boshlash uchun ayni davr. Buning uchun har qanday bino yoki obyekt asosini yaratishda sifatli metall konstruksiyadan foydalanish talab etiladi.

Metall konstruksiya o'zi nima?

Metall konstruksiyalar o'lichami, tayyorlanish usuli, konfiguratsiyasi va qo'llanilishi jihatidan farqlanadi. Metall konstruksiyalar, shuningdek, temir-beton konstruksiyalarga qaraganda qator ustun jihatlarga ham ega:

- * vazni yengilligi;
- * montaj hamda demontaj ishlarining qulayligi;
- * quruvchilarga tashishning osonligi;
- * tezlik bilan tiklash imkoniyati.

O'zbekistonda "NURAFSHON SULTON METALL" MChJ metall konstruksiyalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi kompaniya sanaladi. Kompaniya bir necha yillardan beri ko'plab mijozlarga sifatli metall konstruksiyalarni yetkazib bermoqda. Shuningdek, kislodsk va boshqa har xil modullar, angarlarni montaj va demontaj ishlarini ham bajaradi.

Mijoz talabi va istagiga mos taklif

Kompaniya nafaqat ma'lum bir turdagi konstruksiyalarni, balki buyurtmachi xohish-istagidan kelib chiqqan holda standart modellarni ham ishlab chiqaradi. Bunday ishlar, shubhasiz, maxsus chizmalar va texnik ishlanmalar yordamida amalga oshiriladi.

Qo'shimcha qulayliklar

Kompaniya turli xildagi metall konstruksiyalarni MDH davlatlaridan keltiradi. Bundan tashqari, turli murakkablikda bo'lgan metall qurilmalarni boshqa joyga ko'chirishda professional xizmat turini taklif etadi. Bunda obyektning to'laonli eski holda joyiga o'rnatilishi ta'minlanadi.

Agarda konstruksiyalar ta'mirlalab bo'lsa, kompaniya sizga yangidan ta'mirlab, qayta ishlab beradi.

Professional yondashuv

Metall konstruksiyalarni loyihalash, ularni ishlab chiqarish va montaj qilishda o'z ishining ustalariga murojaat qilish foydadan emasligi sir emas. Shu sababli, "NURAFSHON SULTON METALL" konstruksiyalari ko'p yillik



tajribaga ega bo'lgan yetuk mutaxassis va muhandislar tomonidan ishlab chiqariladi.

Eng muhimi — hamyonbop

Siz metall konstruksiyalarni bozor narxidan arzon va kelishilgan narxlarida xarid qilish imkoniga ega bo'lasiz. O'z ishining ustalari esa sizning buyurtmangizni yuqori sifatda bajarib berishi kafolatlanadi!

Yangi imorat qurish arafasidamisiz? Yoki metall konstruksiyani boshqa obyektga ko'chirish niyatidamisiz? U holda "NURAFSHON SULTON METALL" MChJ kompaniyasi sizningizda.

Murojaat uchun telefon:
(93) 181-98-88, (91) 293-77-76,
(99) 887-09-52.

Nizmatlar litsenziyalangan!
Mahsulotlar sertifikatlangan!

Bir go'zal tahrir

O'n yilcha avval "Yetti dovon hayrati" (Mumtoz so'z — 2014) nomli salmoqdor kitobim mundarijasidan o'rin olgan adabiy-tanqidiy maqolalarimning ba'zilarini O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining yetakchi olimlari nigohidan o'tkazish sharafiga muyassar bo'lgan edim. Akademik Baxtiyor Nazarov o'qigan maqolalar, aynan domlanning juz'iy tahriri bilan o'ziga mazmun, joziba kashf etganini ta'kidlamochiman.

To'g'ri, domla kitob qo'lyozmasini jiddiy tahrir qilgan emas. Boz ustiga kitobning hajmi hozirgiga nisbatan ikki barobar kichkina edi. Biroq domlanning Ogahiy g'azali haqidagi "Tilim shahidini so'r" nomli maqolam (keyinroq bu maqola "Sharq yulduzi" jurnalining 2019-yil 12-sonida ham chop etildi)ga kiritgan birgina tahriri o'sha jumlani ichdan yashnatib, nurlantirib yuborganidan sira ko'z yumolmayman.

Kamina bir joyda mumtoz she'riyatda, ayniqsa, ishqiy ruboiy va g'azallarda an'anaviy e'tirof etiladigan bo'sa olish a'zolarini bir joyga "yig'ib" yozish uchun rosa bosh qotirdim. "Yuz", "ko'z", "dudog'", "qabog'", "saqog'" va "g'abg'aba" singari so'zlarni umumiy shaklda ifodalash zarurligini his qilib turardim. Ularni "organlar", "obyektlar", "a'zolar",

"uzvlar" hatto "nuqtalar" deb yozib ko'rdim. Birortasi ham o'miga tushmagandek tuyulaverdi. Domlaga berilgan qo'lyozmada "unda (bu o'rinda hazrat Navoiyning mashhur "O'pay" radifi ruboiysi ko'zda tutilgan) mumtoz adabiyotimizda ko'p ishlatiladigan an'anaviy bo'sa olish a'zolari qalamga olingan" degan jumla bor edi. Jumla anday to'mtoqligini sezib turardim, biroq uni hech kimga bildirgan emasman. E'tibor qiling, ustoz uni tubandagicha tahrir qilgan: "unda mumtoz adabiyotimizda keng kuylanib kelingan bo'satalab maxzanlar tilga olinib, muallif tomonidan ko'tarinki ruhda madh etiladi".

Demak, domla o'zining xususiy uslubiga xos, ta'bir joiz topilsa, leksik boyligi bo'lgan, ehtimol, biror bir o'rinda ishlatmagan "bo'satalab

maxzanlar" degan nihoyatda nozik kalimasini zarracha qizg'anmasdan (juda ko'p muharrirlar nozik ifodalarni o'z ijodlarida qo'llash uchun zaxirada saqlaydilar) maqola tarkibiga kiritadi hamda jumlaning, yo'q-yo'q, maqolaning go'zal va to'laqonli chiqishiga beminnat yordam beradi.

Baxtiyor akaning yana bir odatini juda qadrlayman. U kishi o'ziga yoqmagandan narsani ham ohista, samimiyat bilan tinglovchining g'ashiga tegmaydigan darajada so'zlaydi va ifodalab ham beradi. O'sha kitob ichida olimlarga tanish, biroq oddiy o'quvchilarga uncha ma'lum bo'lmagan bir mavzu haqida ham maqola bor edi. Domla uning ustini chizib, "bu kerak emas" deyishi mumkin edi. Biroq u kishi sarlavha yoniga so'roq belgisi qo'yib, "shu shartmikim?" deb yozib qo'ydi. Demak, muallif bu gapdan to'g'ri xulosa chiqarishi lozim. Domlanning yuqoridagi taklifi aslida "bu kerak emas", degan mantiqni yuzaga chiqaradi. Ko'rdingizmi, akademiyaning katta olimlari yoshlarga faqat yozishni emas, zarur hollarda o'chirishni, ehtimol ko'proq o'chirish lozimligini ham beminnat o'rgatadi.

Baxtiyor Nazarov boshqa ba'zi maqolalarning hoshiyasiga so'roq alo-



mati qo'yib, o'sha jumla yoki she'riy iqtiboslarni asl manba bilan qayta qiyoslab, chuqurroq tahlil qilish ehtiyojini eslatib o'tadiki, bu hol mening ilmiy-ijodiy tajribamda unutilmas iz qoldirganini mamnuniyat bilan e'tirof etmoqchiman.

Takror aytaman, "bo'satalab maxzanlar" domlanning o'zi uchun oddiy ibora, ijodini kuzatsangiz bundan ham go'zal so'z va ifoda birliklariga duch kelasiz. Biroq bu kalima men uchun nihoyatda qadrlidi. Chunki aynan shu so'z maqolalarning, ehtimol, kitobimning g'oyat yaxshi chiqishi uchun ko'nargi vazifasini o'tagandek tuyulaveradi.

Abdurahmon PIRIMQULOV,
filologiya fanlari nomzodi

Fanimiz fidoyilari

Metrologiya ilmi va ta'limi fidoyisi

1940-yil 5-aprelda Toshkent shahrida tavallud topgan Patxulla 11-maktabni a'lo baholar bilan bitirib, 1958-yili Toshkent politexnika institutiga (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti) o'qishga kiradi. 3-kursdan o'qishni Moskva kimyo mashinasozligi institutida davom ettiradi.

Toshkentlik talaba yetuk fan arbobi, professor M.V.Kulakov nazariga tushib, sevimli shogirdlaridan biriga aylandi. Beshinchi kursga o'tganda 10 oylik bitiruvoldi amaliyotini Samara viloyatidagi kauchuk zavodida boshlagan Patxulla nazorat-o'lchov asboblari slesari lavozimiga ishga qabul qilindi, qisqa vaqt ichida 2-razryad slesaridan 5-razryad slesari lavozimigacha ko'tarildi.

1964-yil mart oyida Toshkentdan Moskvaga xizmat safari bilan kelgan dotsent Husnutdin Toshpo'latovni Patxulla o'zi yashab turgan yotoqxona-ga taklif qiladi. Domla talabani diplom ishi bilan qiziqib, tanishib chiqarkan yosh Patxullaning ilmiy salohiyati va avtomatlashtirish sohasiga o'ta qiziqishini hisobga olib, kafedraga ishga taklif qiladi. Shu tariqa yosh muhandis 1964-yil 1-sentabrdan Toshkent

politexnika instituti "Kimyo sanoati jarayonlarini avtomatlashtirish" kafedrasiga qabul qilinadi.

1966-yili katta o'qituvchi lavozimiga o'tkazildi. 30 yoshni qoralamasdan fan nomzodi bo'ldi — 1969-yili "Adsorb-sion sochiluvchan materiallar namligini o'lchash" mavzusida dissertatsiya yoqladi. 1986-yili "Yog'-moy sanoati uchun nam o'lchagich asboblari yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan yoqladi. 1970-yili dotsent, 1988-yili esa professor unvoniga sazovor bo'ldi.

Professor Ismatullayev 1996–1998-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy o'quv yurtlari bosh boshqarmasining boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amaliyotga tatbiq qilishda faol ishtirok etgan. Qahra-



monimiz "TEMPUS-TASIS" fondi dasturi bo'yicha Turkiya, Gollandiya, Gretsiya, Belgiya, Germaniya, Italiya va Koreya davlatlari oliy o'quv yurtlarida xizmat safarida bo'lib, olgan taassurotlarini mamlakatimiz oliy ta'limi rivojiga amaliy yo'naltira olgan olimlardan. Shu bilan birga Toshkent davlat texnika universiteti tarkibida uning tashabbusi bilan "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" mutaxassislik kafedrasini tashkil etilgan. Patxulla Ismatullayev rahbarligida 4 fan doktori, 15 fan nomzodi tayyorlangan.

2001-yili Ismatullayev rahbarligi va hammuallifligida Respublikamiz oliy o'quv yurtlari talabalari uchun ilk bor "Metrologiya, standart-

lashtirish va sertifikatlashtirish" darsligi chop etildi. Ushbu darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Yilning eng yaxshi darsligi" tanlovida II darajali diplom bilan taqdirlandi.

2012-yilda Ismatullayev va Sh.Qodirovaning "Metrologiya asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi "Yilning eng yaxshi darsligi" tanlovida III darajali diplomi bilan taqdirlandi. 2014-yilda esa ustoz rahbarligida va hammuallifligida "Sifat menejment tizimi va uni sertifikatlashtirish" darsligi chop etildi.

Olim 50 dan ortiq patent va ixtirolar, 200 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, ularning 70 dan ortig'i xorijiy mamlakatlardagi nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilgan.

Domla XX asrning 70–80-yillarida o'quv jarayonini optimal tashkil etishda, talabalar bilimini samarali nazorat qilishda qo'llanilgan ishlanmalariga ToshPI tarkibida birinchi bor mualliflik guvohnomalarini olishga erishgan. "SUOK" tipidagi ixtirolari "Chizma geometriya"

hamda "Fizika" fanlarini samarali o'qitishda qo'llanilgan.

Patxulla Ismatullayev "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi" faxriy unvoni, "Shuhrat" medali va "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. 1996-yilda Xalqaro oliy maktab akademiyasining akademigi, 2011-yilda esa Rossiya metrologlar akademiyasining faxriy a'zosi etib saylangan.

Qutlug' 80 yoshga to'lgan ustoz 56 yildan beri ilm-fan va ta'lim sohasida samarali faoliyat yuritmoqda. U oliy o'quv yurtining hamma jabhalarida faol ishtirok etib, avval assistent, katta o'qituvchi, dotsent, fakultet dekani muovini, ilmiy ishlar bo'limi mudiri, professor, o'quv va ilmiy ishlar prorektori lavozimlarida barakali faoliyat olib bordi. 2010-yildan to hozirgi vaqtga qadar "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" kafedrasini professori lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Farog'at MATYOQUBOVA,
TDU "Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish" kafedrasini mudiri

So'rab ko'rdim tabiblardan...

Yopishqoq balg'amdan qanday xalos bo'lish mumkin?

Yopishqoq balg'amdan aziyat chekayotgan bemorlarga:

1) uzum sirkasini qizdirib, tomoqni qayta-qayta g'arg'ara qilish;
2) mayzning ichini yorgan holda ichiga murch solib, tomoqqa qadaladigan g'o'lacha qilib, uni tomoqda imkon qadar uzoq ushlab turish;

3) asal iste'mol qilib, undan keyin kamida ikki-uch soat bir tomchi ham suyuqlik ichmaslik kabi sinalgan usullar tavsiya etiladi. Bu uchala davoni har kuni birvarakay qo'llash ham yopishqoq balg'amdan tezroq qutulishga yordam beradi. Bemor bunda albatta to'g'ri ovqatlanishga e'tibor qaratishi kerak. Masalan, balg'am hosil qiluvchi sovuqliklarni iste'mol qilishi mumkin emas. Sovuqlik hosil qilib, yopishqoq balg'amni ko'paytiruvchilar juda ko'p. Eng avvalo, sovuq suv (qaynatib sovutilgan suv ham sovuq suv hukmda, hatto Makkadan keluvchi suv ham qancha shifobaxsh bo'lmasin suvdur, ya'ni sovuqlik), turli mevalardan tayyorlangan sharbatlar ham sovuq mijozligi sabab balg'amni ko'paytiruvchidir. Va yana qatiq, ayron, chakki, chalop kabi sut mahsulotlari, anor, limon, tarvuz kabi ho'l mevalar ham yopishqoq balg'amni qo'zg'ovchi hisoblanadi.

Yurish, yugurish, turfa mashqlar, yoga, raqs va eng muhimi tinmay harakatda mehnat qilish tanadagi issiqlikni oshiradi. Bu ham yopishqoq balg'amdan xalos bo'lishga ko'maklashadi.

Savolga O'zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi a'zosi, tabib O'rol O'ZBEK javob berdi.

Yaxshiga qilsang yaxshilik...

Bundan 16 yil avval. Kuz. O'sha paytlari paxta yig'im-terimiga talabalar ham borishardi. Talaba yigit-qizlar terimga kelganda qaysidir buyumi esidan chiqib qolib ketardi.

Xivalik talaba ovqat solish uchun kosa va qoshiq olishni unutgan ekan, onamdan iltimos qilishdi. Ota-onamiz bunday arzimaz buyumlarni qaytarib olishni o'ylamas edilar. Oradan yillar o'tdi. Bu vaqtda otam ham, onam ham bu yorug' dunyoni tark etdilar. 2016-yil yanvar oyining oxirida onamning vafot qilganiga o'n yil to'lgani kuni o'sha xivalik onaxon onamdan olgan "qarzi"ni qaytarish uchun uyimizga kelibdi. Meni aynan onamning o'tgan kunida bu ayolning to'lib-toshib

kelishi hayratga soldi. Onamning kichkina yaxshiligini unutmagan bu ayolni ko'rib ko'zlarimga yosh keldi. Yaxshilik unutilmaganidan, qadrlanganidan, aynan shu kuni esga olinganidan quvondim. O'sha ayolning "qarzi"ni qaytargani uchun emas, kichik bo'lsa-da, yaxshilikni yillar davomida unutmagani uchun sevindim.

Ra'no XOLMETOVA,
Yangibozor tumanidagi
20-maktab o'qituvchisi

E'LON

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshida tashkil etilgan Kasbiy qayta tayyorlash kursiga pedagogik va nopedagogik ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni (chizmachilik, tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya, YChT fanlaridan tashqari) barcha fan yo'nalishlari bo'yicha o'qishga taklif qiladi.

O'qishga kirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:


- diplom ilovasi bilan (asli);
- pasport nusxasi (pasport shaxsan ko'rsatiladi);
- mehnat daftarchasidan ko'chirma;
- ish joyidan ma'lumotnoma;
- 6 dona 3x4 o'lchamdagi rasm.

Ma'lumot uchun telefonlar:
(90) 931-60-73, (97) 700-28-73.



Tajriba

Chet tillarini o'qitishda motivatsiya katta ahamiyatga ega. U fikrlashni faollashtirishga yordam beradi, har xil mashqlarni bajarishga qiziqtiradi.



Ijtimoiy tarmoq til o'rganishda qulay vosita

Eng kuchli rag'batlantiruvchi omil bu o'rganilayotgan materialning yangiligiga va bajariladigan vazifalarning xilma-xiligiga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashga qaratilgan o'qitish usullaridir. Ta'limning turli xil nostandart usullaridan foydalangan holda barcha vizual va eshitish tasvirilarini yaratish va o'quvchilar faolligini ta'minlashga yordam beradi. Shuning uchun mashg'ulotlarda ko'proq o'qitishning faol usullariga ustunlik berilmoqda.

Hozirgi paytda chet tillarni o'rganishda internet muhim ahamiyat kasb etadi. Internetdan foydalangan holda siz bir qator didaktik muammolarni hal qilishingiz mumkin: o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirish; yozish mahoratini oshirish; so'z boyligini boyitish. O'quvchilar internet orqali tanlovlarda ishtirok etishlari, boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan yozishmalar o'tkazishlari, videokonferensiyalarda ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, "Telegram", "Instagram", "Facebook" kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali ham ingliz tilini o'rganish ommalashgan va ulardagi til bo'yicha ma'lumotlarni o'zlashtirishga o'quvchilar o'rtasida katta qiziqish mavjud.

Ma'lum bir mavzuni tugatgandan so'ng, o'quvchi topshiriqni oladi va uni internetdan foydalangan holda bajaradi hamda o'zining "Telegram"ida natijalarini aks ettiradi. Bu qanday ko'rinishda bo'lishining taxminiy rejasi:

1. Oxirgi darsda o'tgan mavzu o'zlashtirilishi bo'yicha o'quvchilar tekshiriladi. Texnologik usul yig'ish yoki to'plash tizimi ko'rinishida ishlaydi. Har bir to'g'ri javob bergan o'quvchiga bittadan "+" qo'yiladi. Barcha o'tilgan darslar uchun har hafta oxirida plyuslar yig'iladi. Ular qancha ko'p bo'lsa baho ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shunday qilib, ushbu usuldan foydalangan holda o'quvchilar orasida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiya oshiriladi.

2. Yangi materialni o'rganish. Oddiy mashqlardan tashqari materialni o'rganishda video yoki audio ma'lumotlardan foydalaniladi.

3. Amaliy topshiriqlarni bajarish.

4. Uy vazifasi. Masalan, o'quvchi matn yozishi kerak bo'lsa, uni ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilishi mumkinligi nuqtayi nazaridan yozadi. Jumladan, keyingi yozganlarining barchasini o'quvchilar o'zlarining "Telegram" sahifasida e'lon qiladilar. Bu juda qiziqligi barobarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash doirasini rivojlantiradi.

5. So'ng bolalar bajarilgan ishlarning skrinshotlarini olishadi va ularni kompyuterlaridagi alohida papkada saqlashadi. Yaxshi bajarilgan vazifalar nazorat ishida ustunlik beradi.

Gulshan ESHBOYEVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
308-maktabning ingliz tili fani
o'qituvchisi

SERGELI TUMAN HOKIMLIGI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-maydagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida sog'lom ovqatlanishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2020/2021-o'quv yilida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish maqsadida oshxonalarini ijaraga berish bo'yicha

TANLOV E'LON QILADI

№	Ta'lim muassasasi nomi	Manzili
1.	55-maktab	Sergeli tumani, 6-"A" mavze
2.	68-maktab	Sergeli tumani, 3-mavze, 49-uy
3.	76-maktab	Sergeli tumani, Pasdarxon MFY, Navro'z ko'chasi, 100-uy
4.	329-maktab	Sergeli tumani, 5-"A" mavze
5.	330-maktab	Sergeli tumani, 5-"A" mavze
6.	331-maktab	Sergeli tumani, 9-qurilish

Tanlov 2020-yil 20-iyul kuni soat 11:00 da Sergeli tuman hokimiyati kichik zalida o'tkaziladi.

Manzil: Toshkent shahri, Sergeli tumani, So'g'diyona ko'chasi, 1-uy.

Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar 2020-yil 10-iyul kuni soat 18:00 ga qadar tuman xalq ta'limi bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Sergeli tumani,

Obihayot ko'chasi, 3-"A" uy.

Murojaat uchun telefonlar: (71) 257-20-93, 281-33-53;

e-mail: sergelixb@inbox.uz; web-site: sergeli_txtb@xtb.uz

Nashrimizga obuna bo'lishni istaganlar uchun "O'zbekiston pochta" AJ va "Matbuot tarqatuvchi" AKning hududiy filiallari telefon raqamlari havola etilmoqda.

"O'zbekiston pochta" AJning korxonalari telefon raqamlari

№	Hududiy filiallar	Telefon	№	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri filiali	(71) 233-73-56	8	Xorazm filiali	(62) 228-51-71
2	Andijon filiali	(74) 223-26-24	9	Surxondaryo filiali	(95) 501-01-95
3	Qoraqalpog'iston filiali	(61) 222-14-43	10	Toshkent filiali	(71) 268-22-56
4	Qashqadaryo filiali	(75) 221-04-62	11	Samarqand filiali	(66) 229-49-27 229-51-16
5	Jizzax filiali	(90) 538-02-69	12	Farg'ona filiali	(73) 244-47-79
6	Namangan filiali	(69) 233-03-67	13	Sirdaryo filiali	(95) 510-01-94
7	Buxoro filiali	(65) 223-48-93	14	Navoiy filiali	(91) 335-66-62

"Matbuot tarqatuvchi" AKning korxonalari telefon raqamlari

№	Hududiy filiallar	Telefon	№	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri	(71) 233-67-98	8	Xorazm viloyati	(62) 227-48-55
2	Andijon viloyati	(74) 223-82-13	9	Surxondaryo viloyati	(76) 221-91-18
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	(61) 222-88-63	10	Toshkent viloyati	(71) 199-76-66
4	Qashqadaryo viloyati	(75) 225-40-27	11	Samarqand viloyati	(66) 234-22-53
5	Jizzax viloyati	(72) 222-40-01	12	Farg'ona viloyati	(73) 244-50-77
6	Namangan viloyati	(69) 239-10-88	13	Sirdaryo viloyati	(67) 225-11-22 225-11-44
7	Buxoro viloyati	(65) 221-56-90	14	Navoiy viloyati	(36) 223-26-86

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: 233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz

e-mail: info@marifat.uz



[/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz)



[@marifatuz](https://twitter.com/marifatuz)



Barcha abituriyentlar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

"Marifat" gazetasi sahifalarida:

abituriyentlar uchun

DTM testlari darajasidagi
sinov testlari

o'qituvchilar uchun

PISA

PIRLS

TIMSS

testlaridan namunalar e'lon
qilina boshlandi.



Vaqtidan yutqazmang. Nashrimizga tezroq obuna bo'ling! Gazetaning o'z vaqtida yetib borishini istasangiz, "O'zbekiston pochta" AJ va "Matbuot tarqatuvchi" AKning hududiy filiallariga murojaat qiling!

"Marifat" gazetasiga 2020-yil uchun obuna davom etadi.

Bundan tashqari, o'tgan yilgi kirish imtihonidagi murakkab testlar yechimiga doir

SHARHLAR;

IZOHLAR;

O'QUV LUG'ATLARI

muntazam berib boriladi. Shu bilan birga,

o'qituvchi-murabbiylar uchun

ATTESTATSIYA TESTLARIdan
namunalar ham e'lon qilinadi.



Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: (71) 233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz



[/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz)



[@marifatuz](https://twitter.com/marifatuz)

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,

O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,

O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari

kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4207. Tiraj 9641.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonalar — (71) 233-50-55;

kotibiyat — (71) 233-99-15;

reklama va marketing bo'limi —

(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-4314



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,

Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.

Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.

Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.

Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6